Maktablarga pullik qabul

Bu haqida jamoatchilik nima deyapti?

To'g'ri, baribir pul to'lashyapti, qo'ng'iroq qildirishyapti. Lekin bolalarimiz sifatli ta'lim olishi uchun boshqa yo'li bo'lganida, o'sha to'g'ri yo'ldan borishga tayyor edik. Biz farzandlarimiz yaxshi bilim olishini istaganimiz uchun aybdormizmi?

6-bet

Sinchkovlik — til o'rganishning muhim sharti

Elektron lug'atmi yoki kitob? O'quvchilar bilan shug'ullanishni boshlamasdan oldin ularga shu savol bilan murojaat qilaman. Ko'pincha ular elektron lug'atni ma'qul ko'rishadi (Ammo kitobdan foydalanishni o'rgangach, bu usul afzal ekanini anglashadi).

8-9-betlar

Davlat mafkurasi zarur

Xalqimizda "Har joy, hech joy" degan maqol bor. Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligidan o'zimizga xos va mos bo'lganini tanlashimiz hamda unga amal qilishimiz kerak bo'ladi.

11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 19-iyun, chorshanba № 47 (9216)

Xalq ziyolilari gazetasi

Assalom, baxtli bolalik!

7-bet

Bu yil abituriyentlar soni avvalgi yillarga nisbatan ikki baravar ko'p bo'lishi kutilayotganini inobatga olsak, qabul jarayonida turnaqator navbatlar nihoyatda ortishi tayin. Shuning uchun o'qishga hujjat topshirmoqchi bo'lgan abituriyent Davlat xizmatlari markazi, shuningdek, qabul komissiyasiga murojaat qilishdan oldin o'zi hujjat topshirmoqchi bo'lgan OTM yoki ta'lim yo'nalishi, ularning ketma-ketliklarini aniqlashtirib olishi kerak. Bu bilan har bir abituriyent hujjat topshirishi uchun ketadigan vaqtini ancha tejashi mumkin.

Bu yil test sinovi qanday o'tadi?

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar **agentligida** Davlat test markazi mutasaddilari ishtirokida o'tgan brifingda qabul jarayoni bilan bog'liq masalalarga **oydinlik** kiritildi.

2019-2020-o'quv yilidan boshlab, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda abituriyentlarga **ustuvor** ketma-ketlik asosida o'qitishning bir shakli doirasida **3 ta ta'lim yo'nalishini tanlash** huquqi berilganidan xabaringiz bor. Albatta, ta'lim yo'nalishlarini tanlashda ko'pchilikda tushunmovchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham vaqt, ham sifatni ta'minlash va tezkorlikni oshirish maqsadida Davlat test markazining rasmiy saytida maxsus elektron qo'llanma joylashtirilgan bo'lib, u orqali abituriyentlar 3 ta ta'lim yo'nalishini oson tanlashi mumkin.

10-bet

Sarvinoz Qurbonboyeva:

Shaxmat olamiga yo'l oiladan boshlangan

15-bet

«Ma'rifat»da test savollari chop etilishi nega to'xtab qoldi?

Davlat test markazi izoh berdi

DTM DAVLAT TEST MARKAZI

Oxirgi ikki yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, davlat tashkilotlari faoliyatining ochiq-oshkoraligi va shaffofligini ta'minlash borasidagi yangiliklar yurtdoshlarimizni, umuman, keng jamoatchilikni mamnun etmoqda.

Ayniqsa, axborot olish sohasidagi erkinliklar tufayli ommaviy axborot vositalari mazmuni tubdan yaxshilandi. Eng asosiysi, bir mahallar qo'l yetmas yulduzdek ko'ringan rasmiy idora va muassasalar ancha xalqchil qiyofaga kirdi. Jumladan, uzoq yillar yopiq sanalgan Davlat test markazi ham turli brifing va anjumanlarda aholini o'ylantirayotgan qaltis savol va murojaatlarga dadil javob berib, faoliyati ochiqlik va shaffoflikka asoslanishini amalda ko'rsatishga intildi.

10-bet

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz

/marifat.uz

@marifatziyo

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Qarori

2019–2023-YILLARDA MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA TALAB YUQORI BO'LGAN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH VA ILMIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'z faoliyati davrida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga, shuningdek, respublika iqtisodiyotining turli tarmoqlari, ijtimoiy va ma'naviy sohalari uchun kadrlar tayyorlashga salmoqli hissa qo'shdi. O'tgan davrda 100 nafardan ortiq akademik va 2,5 ming nafar fan doktorlari va nomzodlari tayyorlandi. T.Sarimsoqov, S.Sirojiddinov, M.Salohiddinovning matematiklar, J.Musayevning biokimyogarlar, H.Abdullayev, T.Dolimovning geologlar maktablari keng e'tirof etildi. O'zbekiston Qahramonlari A.Oripov, E.Vohidov, O.Sharafiddinov va S.G'aniyeva universitetda ta'lim-tarbiya oldilar.

O'quv jarayoni zamonaviy talablar hisobga olingan holda mutaxassislar tayyorlashning, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari bilan yangilandi. Oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning yangi ikki bosqichli tizimi joriy etildi. So'nggi 10 yilda turli yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha 26 mingdan ortiq malakali bitiruvchilar universitet diplomini oldilar.

Hozirgi vaqtda 114 ta, shu jumladan, 18 ta xalqaro ilmiy va ilmiy-ta'lim loyihalari amalga oshirilmoqda, ularda universitetning 50,0 foizdan ortiq o'qituvchilari ishtirok etmoqda. 2018/2019-o'quv yilidan boshlab "geodeziya va geoinformatika" yo'nalishi bo'yicha Qozon federal universiteti (Rossiya Federatsiyasi) va "kompyuter fanlari", "muhandislik matematikasi", "texnologik menejment" yo'nalishlari bo'yicha Xolon texnologiyalar instituti (Isroil) bilan qo'shma ta'lim dasturlari amalga oshirilmoqda. Jahonning yetakchi universitetlarida 226 nafar o'qituvchi va doktorantlarning tajriba orttirishi, malaka oshirishi va ilmiy tadqiqotlar olib borishi ta'minlanmoqda.

Universitetning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash va mustahkamlash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. 2 ta yangi fakultet ochildi, yangi laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan o'quv-laboratoriya korpuslari rekonstruksiya qilindi. Professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to'lash 2,5 baravar oshirildi.

Davlat tomonidan ko'rilayotgan har tomonlama yordam va qo'llab-quvvatlash universitet faoliyatida faqat **"... ijodiy va tizimli fikrlaydigan, nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan, mamlakat manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan yuqori malakali mutaxassislar..."** tayyorlashgagina emas, balki qobiliyatli va iste'dodli talaba-yoshlarning tarbiyasiga ham so'zsiz ko'maklashmoqda.

Bugungi kunda universitet talabalarining 73,0 foizini Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikaning barcha 12 viloyatlaridan kelgan talabalar tashkil etadi. Ular orasida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari, nomli stipendiatlar, fanlar bo'yicha xalqaro va respublika olimpiadalari sovrindorlari, sport turlari bo'yicha jahon va Osiyo chempionatlari g'oliblari bor. S.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey bitiruvchilarining 87,0 foizidan ortig'i respublika oliy ta'lim muassasalariga muvaffaqiyatli kirdilar va o'qishni davom ettirmoqdalar.

Shu bilan birga tanqidiy va har tomonlama tahlillarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy va ko'p qirrali inson kapitalini rivojlantirish sohasida jiddiy to'g'anoq va to'siq bo'layotgan kompleks kamchiliklar va muammolar aniqlandi. **Keyingi yillarda universitetning Milliy universitet maqomiga munosib bo'lishi uchun amaliy va samarali chora-tadbirlar ta'minlanmadi.** Shu jumladan:

birinchidan — har bir fakultet va kafedra bo'yicha ta'limning yo'nalishlari va mutaxassisliklari tarkibi, shuningdek, qabul kvotalari real ehtiyojdan ancha orqada qolmoqda, ko'pincha hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga, mehnat bozori va kadrlarning buyurtmachilari ehtiyojlariga mos kelmaydi. Bitiruvchilarning ishga joylashtirilishi hamma vaqt ham egallangan mutaxassislikka muvofiq emas;

ikkinchidan — ta'lim jarayoniga, shu jumladan, sinovdan o'tgan va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish darajasi past. Ta'lim jarayonini o'quv-metodik ta'minlash va uning mazmuni iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion va texnologik rivojlanishidan orqada qolmoqda, talabalarning nazariy va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish samarali emas;

uchinchidan — universitetni, shu jumladan, o'quv-tarbiyaviy va ilmiy jarayonni samarali boshqarishni ta'minlash uchun kadrlar zaxirasini tayyorlashning aniq ifodalangan tizimi mavjud emas. Ayrim pedagog kadrlarning kasbiy mahorati darajasi yetarli emasligi, malaka oshirish kurslarining, pedagog va ilmiy xodimlar stajirovkasining samarasizligi, magistrantlar va dissertantlarning rahbarlari va maslahatchilarini tayinlashda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari salohiyatini sust jalb etish, turli dasturlar, shu jumladan, chet elda magistratura bo'yicha kadrlar tayyorlashning tizimsizligi saqlanib qolmoqda;

to'rtinchidan — universitet o'qituvchilarining atigi 59,0 foizi ilmiy darajaga ega, fan doktorlarining o'rtacha yoshi 61 yoshni, fan nomzodlarining o'rtacha yoshi — 54 yoshni tashkil etmoqda. **Universitet nufuzli xalqaro agentliklar reytingiga kirmaydi, olimlarning ilmiy maqolalaridan xalqaro iqtibos keltirish darajasi pastligicha qolmoqda, talabalar ma'lum bir qismining ilm-fanga intilishi va qiziqishi juda sust ekanligi kuzatilmoqda;**

beshinchidan — universitet axborot tizimining mazmuni, unumdorligi va sifati, shuningdek, IT mutaxassislarining o'z ishini bilishi past darajada qolmoqda. Yuqori tezlikdagi internet tarmog'idan foydalanish imkoniyati yo'q, universitet hududining atigi 7,0 foizida internetga, shu jumladan, xorijiy axborot ta'lim resurslariga simsiz ulanish mumkin;

oltinchidan — yetakchi xorijiy ixtisoslashgan ilmiy markazlar bilan, ayniqsa, ilmiy stajirovkalar asosida yaqin sheriklik munosabatlarini o'rnatish ishlari zarur tarzda amalga oshirilmayapti, universitetning o'quv va ilmiy faoliyatiga jalb etilgan xorijiy professorlar va o'qituvchilar soni yetarli emas;

yettinchidan — o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar yigitlar va qizlar, shuningdek, yosh pedagoglar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirish, ularda bilimga intilishnigina emas, balki insonparvarlikning milliy an'analariga sodiqlik va yuksak ma'naviyatni tarbiyalash, yot g'oyalar va mafkuralarga nisbatan tanqidiy tafakkur va immunitetni mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda. Rektorat, fakultetlar va kafedralarning ko'pchilik rahbarlari ushbu muhim ishdan o'zlarini chetga olishgan, ularning talabalar turarjoylarida yoshlar bilan uchrashuvlari soni juda kam. Dam olish, ko'plab tadbirlarning, shu jumladan, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarining darajasi pastligicha qolmoqda;

sakkizinchidan — ayrim fakultetlar, akademik litsey, sport inshootlari va talabalarning dala amaliyotlari o'tadigan joylarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun amaliy chora-tadbirlar ko'rilmayapti. Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida zamonaviy asbob-uskunalar yetishmaydi. Talabalar yashash joylarida o'rinlar taqchilligi mavjud, shuningdek, universitet xodimlari va chet eldan taklif qilinadigan mutaxassislar uchun turarjoy yetarli emas;

to'qqizinchidan — universitetni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari menejmentining zamonaviy usullar va ilg'or amaliyotga asoslangan aniq ifodalangan strategiyasi mavjud emas. Moliyalashtirish tizimini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish, shuningdek, mablag'lardan, eng avvalo, budjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishning shaffof mexanizmlarini joriy etish talab qilinadi;

o'ninchidan — **dekanatlar va kafedralar rahbarlari, shuningdek, professor-o'qituvchilar tarkibi mehnati samaradorligini baholashning va keyinchalik ularni moddiy rag'batlantirishning reyting tizimi joriy etilmagan.**

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar va muammolar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti (A.R.Marahimov) va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I.U.Madjidov) rahbariyatida talabchanlik, maqsadga yo'naltirilganlik va yuqori malakali, yangicha fikrlaydigan kadrlar tayyorlashning xalqaro standartlariga javob beradigan zamonaviy shakllari va usullarini izlash, yaratish va faol joriy etish, oliy ta'lim ilm-fanining ulkan salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining jadal rivojlanishiga faol ulush qo'shishga tayyor va qodir bo'lgan munosib talaba-yoshlarni har tomonlama tayyorlash bo'yicha shaxsiy tashabbus mavjud emasligining to'g'ridan to'g'ri oqibati hisoblanadi.

Fundamental va gumanitar fanlar sohasida xalqaro standartlarga muvofiq talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, oliy ta'lim ilm-fanini jadal rivojlantirish, istiqbolli va yuqori texnologik yo'nalishlar bo'yicha ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish, kadrlarning kasbiy darajasi va pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni kuchaytirish, shuningdek, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetini kompleks rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Rektor A.R.Marahimov va uning o'rinbosarlari D.X.Jumabayev, A.S.To'rayev, V.A.Ibodullayev, N.N.Qodirov universitetning tarkibiy bo'linmalari tomonidan samarali menejmentni ta'minlash bo'yicha jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi, joriy, o'rta muddatli va istiqbolli vazifalar tizimli tahlil qilinmaganligi, e'tirof etilgan xalqaro talablar va standartlar darajasida zamonaviy ta'lim, shu jumladan, innovatsion dasturlar va samarali ilmiy-tadqiqot ishlari joriy etilishini ta'minlash yuzasidan boshqaruv bo'g'inining rahbar kadrlari va professor-o'qituvchilar tarkibiga nisbatan talabchanlikning sustligi, shuningdek, universitetning mamlakatimiz universitetlari va yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari orasida reytingi oshishi uchun shaxsan javobgar ekanligi to'g'risida qat'iy ogohlantirilsinlar.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U.Madjidov, uning o'rinbosarlari — K.A.Sharipov, U.Sh. Begimqulov, S.M.Buzrukxonov, vazirlik hay'ati va markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining e'tibori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2909-son qarorida belgilab berilgan asosiy yo'nalishlarni, ustuvor vazifalarni amalga oshirish va maqsadli ko'rsatkichlarga erishish hamda mamlakatda oliy ta'limning matematika, tabiiy-ilmiy va gumanitar yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash bo'yicha bazaviy universitet sifatida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetini kompleks rivojlantirish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi yuzasidan ular tomonidan nazorat, ta'sirchan muvofiqlashtirish mavjud emasligiga hamda ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi pastligiga qaratilsin.

3. Bosh vazirning o'rinbosari A.A.Abduhakimov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi A.A.Abduvaxitov bilan birgalikda:

2019-yil 1-iyulga qadar — **2015—2019-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning hujjatlari bilan tasdiqlangan 2017—2021-yillar davrida respublikada oliy ta'limni rivojlantirish tizimi bo'yicha ustuvor vazifalar, talablar va chora-tadbirlar amalga oshirilishi samaradorligini puxta va har tomonlama tahlil qilsin;**

(Davomi 3-betda)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Qarori

2019–2023-YILLARDA MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA TALAB YUQORI BO'LGAN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH VA ILMIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshi 2-betda.)

2019-yil 1-avgustga qadar — tanqidiy tahlil qilish asosida: birinchi — oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini va moliyalashtirish holatini mustahkamlashning muhim yo'nalishlari bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarning natijadorligi; ikkinchi — tasdiqlangan kompleks dasturlarga (chora-tadbirlarga) optimal tuzatishlar kiritish; uchinchi — **tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ularga yuklangan maqsadli vazifalarni amalga oshirishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan rahbarlarining shaxsiy javobgarligi choralari bo'yicha aniq takliflar kiritsin.**

4. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mansabdor shaxslar hamda vazirliklar, idoralar va hokimliklar rahbarlarining alohida e'tibori **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2019-yil 24-mayda oliy ta'lim muassasalari rektorlari va respublika ilmiy jamoatchiligi bilan uchrashuvda belgilangan talablar va ustuvor vazifalar** o'z vaqtida, so'zsiz va to'liq hajmda bajarilishi zarurligiga qaratilsin. Ushbu maqsadlarda berilgan topshiriqlar bajarilishini va oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishilishini ta'minlaydigan amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin, tasdiqlansin va amalga oshirilsin.

5. **Ko'p qirrali va ustuvor vazifalarni — "... inson kapitalini har tomonlama rivojlantirish, keyinchalik O'zbekiston Respublikasining intellektual, ilmiy va iqtisodiy qudratini, shuningdek, ravnaqi va mustaqilligini ta'minlashga qodir bo'lgan xalqaro standartlar darajasida mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur va qulay shart-sharoitlar yaratish..." bo'yicha kompleks aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, uning fakultetlari, ixtisoslashtirilgan kafedralari va boshqa kafedralari, ilmiy-tadqiqot institutlari, akademik litsey rahbariyatining, butun professor-o'qituvchilar tarkibi va talaba-yoshlarining asosiy maqsadi etib belgilansin.**

6. **2019—2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetini kompleks rivojlantirish dasturi** ishlab chiqilishini ta'minlash maqsadida universitet rektorati, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha rahbarlarining — kadrlar buyurtmachilarining, Toshkent shahar hokimligining **talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va universitetning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, uning O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi bayroqdori sifatidagi maqomini tiklashning mustahkam asosi, amaliy mexanizmi va kafolati bo'lishga qaratilgan 9 ta maqsadli dasturni birgalikda ishlab chiqish to'g'risidagi** takliflariga rozilik berilsin. **Quyidagi maqsadli dasturlarni** ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari 1–9-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin:

1-komponent — "Hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari, ilm-fan va ijtimoiy sohani rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, kadrlar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida amaliyotini tashkil qilish";

2-komponent — "Eng yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini joriy qilishning xalqaro amaliyotiga muvofiq ta'lim jarayonini rejalashtirish, chuqurlashtirish va sifatini yaxshilashni tashkil etishni takomillashtirish";

3-komponent — "Rektorat, fakultetlar, kafedralar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va akademik litsey rahbar kadrlari va professor-o'qituvchilarini tanlash va tayinlash, ularning kasb darajasi va pedagogik mahoratini oshirish tizimini takomillashtirish";

4-komponent — "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, universitetda olib boriladigan tadqiqotlarni ishlab chiqarish, akademik ilm-fan ehtiyojlari bilan integratsiyalash, o'qituvchilar ilmiy ishining natijadorligini ta'minlash, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish";

5-komponent — "Ta'lim, ilmiy va ma'muriy faoliyatning yagona axborot makonini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini jihozlash, kontent bilan to'ldirish";

6-komponent — "yetakchi xorijiy universitetlar bilan xalqaro hamkorlikni, sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, ta'lim faoliyatiga xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarni jalb qilish";

7-komponent — "Tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish, talabalarga yuksak axloqiy va ma'naviy-ma'rifiy fazilatlarni singdirish, yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitetni mustahkamlash, talabalarning sog'lom turmush tarzi va dam olishini tashkil qilish uchun shart-sharoitlar yaratish;

8-komponent — "Moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish va mustahkamlash, laboratoriyalarni zamonaviy o'quv-ilmiy uskunalar bilan jihozlash, ijtimoiy-sport infratuzilmasini rivojlantirish;

9-komponent — "Universitet faoliyatini samarali moliyalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tish.

7. Universitet, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqa vazirliklar va idoralarning tegishli normativ hujjatlar va amaliy chora-tadbirlarni o'z vaqtida tayyorlash, ularni puxta iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazish ishlari muvofiqlashtirilishini ta'minlash, shuningdek, belgilangan muddatlarda maqsadli dasturlarni shakllantirish uchun 10-ilovaga muvofiq tarkibda Muvofiqlashtiruvchi guruh tashkil etilsin. Muvofiqlashtiruvchi guruh rahbari — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A.Abduhakimov bir hafta muddatda ushbu qarorga 1–9-ilovalar bo'yicha ishchi guruhlar tarkiblarini va maqsadli dasturlarni amalga oshirishning bosqichma-bosqich jadvalini tasdiqlasin.

8. MDH mamlakatlari va xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida sinovdan o'tgan tajribani o'rganishni hisobga olgan holda 2019/2020-o'quv yilidan boshlab **fakultetlar va kafedralar, ilmiy-tadqiqot institutlarining laboratoriyalari bo'yicha, akademik litseyda va umuman, universitetda rahbarlar hamda professor-o'qituvchilar tarkibi faoliyatining samaradorligini tasdiqlangan maqsadli dasturlar bo'yicha reyting baholash tizimi** joriy etilsin.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda:

— 2019-yil 1-avgustga qadar — **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta tashabbusini** barcha kurslarda va universitetning tarkibiy bo'linmalarida **amalga oshirish tartibini va chora-tadbirlar kompleksini** ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

Talabalar, ayniqsa, talabalar turarjoylarida yashaydigan va yashamaydigan talabalar bilan muntazam asosda faol muloqot olib borish amaliyotini joriy etish, ularning talab va ehtiyojlarini tizimli ravishda o'rganish, talaba-yoshlarning o'quv, ilmiy va ma'naviy hayotidagi muammoli masalalarni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ko'rish universitet rektori va prorektorlarining, dekanatlar hamda kafedralar rahbarlarining, barcha professor-o'qituvchilar tarkibining ustuvor vazifasi etib belgilansin;

— 2019-yil 1-sentabrga qadar — **reyting baholash tizimini joriy qilishda asos bo'ladigan indikatorlarni (ko'rsatkichlarni);**

— 2019-yil 1-oktabrga qadar — **yuqorida qayd etilgan indikatorlar (ko'rsatkichlar) asosida tarkibiy bo'linmalar va umuman universitet faoliyatining samaradorligi hamda natijadorligini reyting baholash tizimini** ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

9. **Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va professor-o'qituvchilari tarkibining bilimi va malakasi, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish tizimini tubdan yaxshilash, ularning ayrimlari orasidagi salbiy illatlar namoyon bo'lishining oldini olish va ularga barham berish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish** Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektorati hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining muhim vazifasi etib belgilansin. **Shu maqsadlarda:**

2019-yil 1-sentabrga qadar — universitetning tarkibiy bo'linmalarida kadrlarning samarali zaxirasini shakllantirish;

2019-yil 1-oktabrga qadar — boshqaruv bo'g'ini xodimlarini, shuningdek, universitet barcha bo'linmalarining professor-o'qituvchilarini belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazish;

2019-yil 1-noyabrga qadar — universitet rahbarlari va professor-o'qituvchilarining "El-yurt umidi" jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha va moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga reyting darajasi yuqori bo'lgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-texnik markazlarda, shuningdek, mamlakatimiz korxonalarida, respublika Fanlar akademiyasi tizimidagi tashkilotlar va bo'linmalarda 6 oy muddatga stajirovkasini tashkil etish bo'yicha **aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.**

10. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining yangilangan tashkiliy tuzilmasi va rektoratining tuzilmasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 2019/2020-o'quv yilidan boshlab rektorat tuzilmasiga respublika oliy ta'lim muassasalari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish metodologiyasini muvofiqlashtirishning o'quv-metodik va ilmiy patronaj bo'yicha bazaviy oliy ta'lim muassasasi sifatida universitetning o'quv-metodik ta'minlash va ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha prorektori lavozimi kiritilsin.

Universitet rektorati, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, kadrlar buyurtmachilari bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining:

2019/2020-o'quv yilidan boshlab — muhandislik matematikasi, kompyuter fanlari va texnologik menejment yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston — Isroil fakultetini;

2020/2021-o'quv yilidan boshlab va keyingi yillarda — "Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar", "Biofizika va muhandislik tadqiqotlari", "Fundamental tibbiyot va biokimyo" fakultetlarini tashkil qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Universitet rektori A.R.Marahimov 10 kun muddatda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda 11-ilovadan kelib chiqib universitet rektorati, dekanatlari, kafedralari va boshqa tarkibiy bo'linmalarining shtat jadvalini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Intellektual-dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazini tashkil etish haqidagi taklifiga rozilik berilsin.

11. S.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey "tabiiy va aniq fanlar"ga ixtisoslashtirilgan S.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik litseyi etib qayta tashkil etilsin.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda S.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik litseyining keyingi samarali faoliyati to'g'risida asoslantirilgan takliflarni, shu jumladan:

2021/2022-o'quv yilidan boshlab o'quvchilarni qabul qilish va keyinchalik ularni Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining tegishli fakultetlariga to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish tartibi;

(Davomi 4-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Qarori

2019–2023-YILLARDA MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA TALAB YUQORI BO'LGAN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH VA ILMIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshi 2-, 3-betlarda.)

2021/2022-o'quv yilidan boshlab S.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik litseyini S.Sirojiddinov nomidagi respublika gimnaziyasiga aylantirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

12. 2019/2020-o'quv yilida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga talabalarni davlat buyurtmasi asosida qabul qilishning asosiy ko'rsatkichlari 12-13-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

13. Universitet faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari belgilansin:

a) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi orqali ajratiladigan hamda ustav faoliyatiga muvofiq Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining joriy xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan **respublika budjet mablag'lari;**

b) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi alohida shaxsiy hisobvaraqqa tushadigan va ustav faoliyatiga muvofiq Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining joriy xarajatlarini moliyalashtirishga va kapital xarajatlarni amalga oshirishga yo'naltiriladigan **kontraktlar bo'yicha to'lov mablag'lari;**

v) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi hisobvaraqqa tushadigan va grant smetasiga muvofiq xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan **grant mablag'lari;**

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi hisobvaraqqa tushadigan va shartnomaviy ishlar bajarilishini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan **xo'jalik shartnomasi (yoki boshqa yo'nalish) bo'yicha mablag'lar;**

d) sohaga kirmaydigan faoliyatdan olinadigan va universitetning joriy xarajatlariga yo'naltiriladigan **boshqa tushumlar.**

14. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Universitetni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilganligi va xo'jalik shartnomalari, pullik kurslar, homiylik ajratmalari, binolarni ijaraga berish, bosmaxona faoliyati va boshqa faoliyatdan tushadigan mablag'lar uning manbayi hisoblanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra Rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari faqat quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

moddiy-texnik bazani mustahkamlash;

kreditor qarzdorlikni qoplash;

xodimlar va professor-o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-avgustga qadar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Homiylik kengashini tajriba tariqasida tashkil qilishni, uning shaxsiy tarkibini tasdiqlashni, vakolatlarini, qarorlar qabul qilish va ijro etish mexanizmlarini belgilashni nazarda tutuvchi takliflarni ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari A.J.Ramatov, J.A.Qo'chqorov, A.A.Abduhakimov, T.K.Narbayeva, vazirliklar va idoralar rahbarlari, Toshkent shahar hokimi J.A.Ortiqxo'jayev 2019-yil 24-mayda oliy ta'lim muassasalari rektorlari va ilmiy jamoatchilik bilan o'tkazilgan uchrashuvda belgilangan topshiriqlar o'z vaqtida va puxta ishlab chiqilishini ta'minlasinlar. Jumladan:

2019-yil 1-iyulga qadar — Toshkent shahri Olmazor tumanidagi talabalar shaharchasi hududida, xususan, universitet professor-o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilari uchun 6 ta zamonaviy ko'p qavatli uylar, universal sport majmuasi, "Yoshlar bog'i", "Wi-Fi" zona va boshqa obyektlarni qurish;

2020-yil 1-yanvarga qadar — universitetning biologiya fakulteti uchun Vivariy va oranjereya binolarini qurish;

2020-yil 1-yanvarga qadar — universitetning Chorvoq o'quv-amaliy markazining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va uni zamonaviy gidrometeorologik asboblar bilan jihozlash bo'yicha takliflar kiritsin.

Aniq va tabiiy fanlar fakultetlarining o'quv-ilmiy laboratoriyalarini jihozlash maqsadida universitetga 6,0 million AQSh dollari ajratilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ta'lim va ilm-fan sohasidagi barcha davlat tashkilotlarida ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan xodimlarning oylik ish haqiga 2019-yil 1-sentabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga — fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarning ularga tenglashtirilgan darajasiga) ega bo'lgan xodimlarga 30,0 foizgacha, fan doktori (Doctor of Science) darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarning ularga tenglashtirilgan darajasiga) ega bo'lgan xodimlarga 60,0 foizgacha qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini bir oy muddatda ishlab chiqsin va kiritsin.

Belgilansinki, qo'shimcha haq har bir xodimning ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatiga qo'shgan aniq hissasini hisobga olgan holda tarkibiy bo'linma rahbarining taqdimnomasi asosida va muassasa (tashkilot) kollegial organining qaroriga ko'ra to'lanadi.

18. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida tayyorgarlik bosqichi sifatida 2020-yil 1-yanvardan boshlab stajyor-tadqiqotchilar institutini joriy etish haqida Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ikki oy muddatda ishlab chiqsin va kiritsin.

19. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — moliya vaziri J.A.Qo'chqorov ushbu qarorning 13-14-bandlarida qayd etilgan manbalarni va xalqaro grantlarni hisobga olgan holda ushbu qarorda nazarda tutilgan topshiriqlar va chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratish yuzasidan, keyinchalik asoslangan takliflar kiritish uchun ularning moliyaviy jihatdan puxta ishlab chiqilishini ta'minlasin.

20. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

21. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A.Abduhakimov, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U.Madjidov va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori A.R.Marahimov zimmasiga yuklansin.

Qabul qilingan chora-tadbirlar natijadorligi to'g'risida 2019-yil 1-avgustda va 1-oktabrda, 2020-yil 10-yanvarda axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2019-yil 18-iyun

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga sharh

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti mamlakatimizda ko'p yillik pedagogik va ilm-fan sohasidagi boy an'analarga ega bo'lgan yirik oliy ta'lim muassasasidir. Universitet har yili iqtisodiyotning turli tarmoqlarini, ta'lim va fan sohalarini o'z bitiruvchilari bilan ta'minlamoqda, shuningdek, ilmiy-tadqiqotlar va izlanishlar bilan, shu jumladan, xalqaro miqyosda ham faol shug'ullanib kelmoqda. Hozirgi paytda **114** ta, shu jumladan, **18** ta xalqaro ilmiy va ilmiy-o'quv loyihalari amalga oshirilmoqda. Universitetning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Professor-o'qituvchilar tarkibining ish haqi oshirildi.

Shu bilan birga, qarorda qayd etilganidek, tanqidiy va har tomonlama tahlillarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fanni va serqirra iqtidor sohibi bo'lgan inson kapitalini rivojlantirishga jiddiy to'siq bo'layotgan bir qancha muammolar va nuqsonlar aniqlandi. Keyingi yillarda universitetning Milliy universitet maqomini qaror toptirish uchun amaliy va samarali chora-tadbirlar ta'minlanmagan.

Jumladan, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tarkibi hamda qabul ko'rsatkichlari kadrlarga bo'lgan real talabdan sezilarli darajada orqada qolmoqda, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish darajasi, ayrim pedagog-kadrlarning kasbiy mahorati, malaka oshirish kurslarining samaradorligi pastligicha qolmoqda.

Qarorda universitetning nufuzli xalqaro agentliklar reytingiga kiritilmaganligiga, yoshlarning ilmga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish darajasi pastligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim jarayoni va ilmiy-tadqiqot faoliyatining moddiy-texnika ta'minotida jiddiy kamchiliklar mavjud.

Yuzaga kelgan holatdan hamda universitetning mamlakat oliy ta'limi sohasida tutgan o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda qarorda bugungi kunda **talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, yuqori texnologiyalarga asoslangan va istiqbolli yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarni jadal amalga oshirish,** shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy bilimlari va pedagogik mahoratini muttasil oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Qayd etish lozimki, qarorning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 24-mayda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim muassasalari rektorlari va respublika ilmiy jamoatchiligi bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda belgilab berilgan edi.

(Davomi 5-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga sharh

(Davomi. Boshi 4-betda.)

Uchrashuv yakunlari asosida qarorda **"... inson kapitalini har tomonlama rivojlantirish, keyinchalik O'zbekiston Respublikasining intellektual, ilmiy va iqtisodiy qudratini, shuningdek, ravnaqi va mustaqilligini ta'minlashga qodir bo'lgan xalqaro standartlar darajasida mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur va qulay shart-sharoitlar yaratish..."** bo'yicha ko'p qirrali va ustuvor vazifalarni amalga oshirish universitet rahbariyati va butun jamoasining asosiy maqsadi etib belgilangan.

Yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish, shuningdek, universitetning O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim bayroqdori sifatidagi nufuzini tiklashning mustahkam poydevori, ta'sirchan mexanizmi va kafolati sifatida **9 ta komponentdan iborat maqsadli dasturlarni ishlab chiqish** nazarda tutilmoqda.

Qarorda universitetning yangi ta'lim modelini shakllantirishning ustuvor yo'nalishi sifatidagi vazifani hal etish uchun o'quv, o'quv-metodik, ilmiy-innovatsion, tarbiyaviy va tashkiliy faoliyat bo'yicha samarali indikatorlar va ko'rsatkichlarni ishlab chiqqan holda **rahbarlar va professor-o'qituvchilar tarkibi faoliyati samaradorligini baholashning reyting tizimini joriy etish nazarda tutilmoqda.**

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida universitet zamonaviy jamiyatning ilmiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy talablariga javob beradigan, oliy ta'lim innovatsion modelini shakllantirishning samarali maydoni bo'lishi, shuningdek, respublika oliy ta'lim tizimida yetakchi o'rnini saqlab qolishi lozim. Ushbu maqsadlarda qarorda:

birinchidan — 2019–2021-yillarda ta'lim yo'nalishlarida tabiiy fanlar, matematik ta'lim, kompyuter texnologiyalari va informatika yo'nalishlari ulushini oshirish;

ikkinchidan — O'zbekiston — Isroil fakultetini, shuningdek, "Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar", "Biofizika va muhandislik tadqiqotlari", "Fundamental tibbiyot va bioximiya" fakultetlarini bosqichma-bosqich ochish nazarda tutilmoqda;

uchinchidan — S.Sirojiddinov nomidagi akademik litseyga tabiiy va aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Respublika akademik litseyi maqomi beriladi hamda uni **universitetda o'qitish uchun iqtidorli va iste'dodli bolalarni tanlab olish va tayyorlash,** bo'lg'usi ilmiy-pedagoglar elitasini shakllantirish markazi sifatida tashkil etish vazifasi qo'yilmoqda;

to'rtinchidan — Universitet tuzilmasida Intellektual-dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Jahonning yetakchi universitetlari tajribasi va an'analaridan kelib chiqib, ta'lim sifatini oshirish hamda xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashish maqsadida 2020/2021-o'quv yilidan boshlab ikkita fakultetda, 2021/2022-o'quv yilidan boshlab esa universitet miqyosida ta'limni tashkil **etishning kredit-modul tizimini joriy qilish** nazarda tutilmoqda.

Xalqaro miqyosda yetakchilik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning zarur sharti sifatida qarorda fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish vazifasi qo'yilmoqda. Ushbu maqsadlarda har yili **ilmiy salohiyatni oshirish uchun** universitet doktoranturasiga har yillik qabul kvotasini va xorijdagi maqsadli doktoranturaga qabul kvotasini ko'paytirish nazarda tutilmoqda. Bunda ta'lim jarayoniga **yuqori malakali xorijlik** o'qituvchilar va mutaxassislarni keng jalb qilish rejalashtirilmoqda.

Qarorda uning infratuzilmasini va **ichki telekommunikatsiya tizimini** tubdan yangilashga doir chora-tadbirlar kompleksi nazarda tutilmoqda. Universitet 2020-yilning o'zida quvvati **600** Mb/sek bo'lgan ko'p tarmoqli internet tizimiga ulanishi ta'minlanadi. Universitet hududi va qo'shimcha maydonlari "Wi-Fi" zonasi bilan ta'minlanadi.

2020—2023-yillar mobaynida talabalar turarjoylarida kapital ta'mirlash (rekonstruksiya) va jihozlash ishlari amalga oshiriladi, universitetning professor-o'qituvchilar tarkibi va yosh tadqiqotchilar uchun **6 ta ko'p kvartirali uylar hamda universal sport majmuasi quriladi.** Aniq va tabiiy fanlar fakultetlarining o'quv-ilmiy laboratoriyalarini jihozlash maqsadida universitetning valyuta hisobraqamiga 6,0 million AQSh dollari o'tkaziladi.

2019-yil 1-sentabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga fan va ta'lim sohasidagi barcha davlat tashkilotlarida ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatini olib borayotgan fan nomzodi yoki falsafa fanlari doktori (PhD) darajasiga ega bo'lgan xodimlarning oylik maoshiga **30 foizgacha,** fan doktori (Doctor of Science) darajasiga ega bo'lgan xodimlarning oylik maoshiga **60 foizgacha** ustama haq belgilanadi. Bunda, **qo'shimcha haq bir xodimning ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatiga qo'shgan aniq hissasini hisobga olgan holda tarkibiy bo'linma rahbarining taqdimnomasi asosida va muassasa (tashkilot) kollegial organining qaroriga ko'ra to'lanadi.**

Qarorda **talabalarda yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni qaror toptirishga,** ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yangi pedagogik innovatsiyalar va samarali mexanizmlarni tatbiq etishga, talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda professor-o'qituvchilarning mas'uliyatini oshirishga, ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqadorligini amalda ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu maqsadlarda talabalar, ayniqsa, talabalar turarjoylarida yashaydigan va yashamaydigan talabalar bilan muntazam asosda faol muloqot olib borish amaliyotini joriy etish, ularning ehtiyoj va talablarini tizimli ravishda o'rganish, talabayoshlarning o'quv, ilmiy va ma'naviy hayotidagi muammoli masalalarni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ko'rish universitet rektori va prorektorlarining, dekanatlar hamda kafedralar rahbarlarining, barcha professor-o'qituvchilar tarkibining ustuvor vazifasi etib belgilangan.

Qarorning amalga oshirilishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti globallashuv sharoitlarida mamlakatimizning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bazasi bo'lish imkonini beradi. Jahon fani taraqqiyoti sur'ati talablariga javob bera oladigan tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ilmiy kadrlar tayyorlash tizimiga joriy etilayotgan innovatsiyalar universitetning oliy ta'lim tizimida yetakchi mavqeyini egallashiga imkon beradi hamda mamlakatning ilmiy, ilmiy-texnikaviy va intellektual sohalari rivojlanishiga ko'maklashadi.

Prezident sovg'asi – "Kobalt" avtomobili topshirildi

Toshkent viloyati Bo'ka tumanida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Bo'ston mahallasida o'tkazilgan mazkur tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas'ullari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari, yozuvchi va shoirlar, elimiz ardog'idagi san'atkorlar, bo'kalik yoshlar, mahalla faollari ishtirok etdi.

Joriy yilning 1-iyun kuni Prezidentimiz Bo'ka tumanidagi Bo'ston mahallasiga tashrif buyurib, tumanda 5 ta muhim tashabbus doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishgan edi. Mazkur tashrif chog'ida Prezidentimizga tumandagi 27-umumta'lim maktabi 3-sinf o'quvchisi Fazilat Yoqubova beshta muhim tashabbusga bag'ishlangan she'rini o'qib bergan, davlatimiz rahbari esa Fazilatga yaxshi ta'lim-tarbiya, ijodiy muhit va sharoit yaratib bergani uchun uning otasiga avtomobil sovg'a qilinishini aytgan edi. Bo'lajak yosh shoiraning o'ziga esa uyida kutubxona ochib, "Fazilat" deb nomlashni taklif qilgandi.

Bo'kalik yoshlar, Bo'ston mahallasi aholisining O'zbekiston ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'ati namoyandalari bilan uchrashuvi avvalida Fazilatning otasi Hikmatilla Yoqubovga Prezidentimiz sovg'asi — "Kobalt" avtomobili topshirildi.

— Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus qishlog'imizga, barcha qishloq aholisi hayotiga tom ma'noda yangi ruh olib kirdi, — deydi Hikmatilla Yoqubov. — Odamlarning, ayniqsa, yoshlarimizning dunyoqarashi tubdan o'zgardi. O'qituvchi sifatida ishonch bilan aytishim mumkinki, bugungi kunda kitobxonlik va sport ular hayotining ajralmas qismiga aylandi. Farzandlarimdan qiyos. Katta qizim Shahnoza 6-sinfga, kichigi Fazilat 3-sinfga o'tyapti. Ikkisi ham she'r yozadi, kitob mutolaasi jon-u dili. Prezidentimiz taklifiga binoan uyimizda "Fazilat" kutubxonasini tashkil qilyapmiz. Yoshlar ittifoqi 2 mingta kitob sovg'a qilishini aytdi. Gapning lo'ndasini aytganda, 5 ta muhim tashabbus yoshlarimizning har tomonlama sog'lom va bilimli avlod bo'lib kamol topishiga xizmat qilishi, aql-zakovatli avlod kelajagimiz buyukligini ta'minlashiga ishonaman.

Davlatimiz rahbari Bo'ka tumaniga tashrifi chog'ida, shuningdek, madaniyat saroyida tarbiyalanayotgan bolalar uchun "Kelajak nihollari" ansambli tashkil etish, jamoaga avtobus sovg'a qilish bo'yicha ham topshiriq bergan edi. Mazkur topshiriqqa asosan 19-bolalar musiqa va san'at maktabiga ham Prezident sovg'asi — "Isuzu" avtobusi berildi.

Bo'ston madaniyat markazida bo'lib o'tgan tadbirda akademiklar, yozuvchi va shoirlar, elimiz ardog'idagi san'atkorlar yoshlarga bilim va sog'liqning hayotimizda tutgan o'rni naqadar muhim ekani, bularga faqat va faqat kitob mutolaa qilish, sport bilan muntazam shug'ullanish orqali erishish mumkinligi, bo'kalik yoshlarga yaratilgan sharoit hech birining yoshligida bo'lmaganini, bunday imkoniyatdan o'rinli foydalanish zarurligini hayotiy misollar orqali so'zlab berdi. Mamlakatimiz ilm-fan namoyandalari bo'kalik yoshlarga kitob sovg'a qildi.

Tadbir doirasida bo'kalik yoshlarning musiqa, rassomchilik va hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazmasi namoyish etildi. Yaqindagina rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirilgan "Bo'ston arena" stadionida sport musobaqalari tashkil etildi.

Tadbirda Toshkent viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi Rustam Xolmatov ishtirok etdi.

A.XUDOYQULOV,
O'zA muxbiri

Mushtariy muhokamasi

Maktablarga pullik qabul

Bu haqida jamoatchilik nima deyapti?

Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, umumta'lim muassasalarining imkoniyatidan kelib chiqib, mikrohududdan tashqarida istiqomat qilayotgan maktab yoshidagi, mikrohudud va mikrohududdan tashqari maktab yoshiga yetmagan (tegishli yilning 1-sentabriga qadar 6 yoshga to'ladigan), shuningdek, umumta'lim muassasalarida ta'lim berish tili bo'yicha boshlang'ich bilim (muloqot qilish) ko'nikmasiga ega bo'lmagan bolalar uchun qo'shimcha kvota ajratiladi. Buning uchun belgilangan tartibga muvofiq eng kam ish haqining 10 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda bir martalik badal puli to'lanishi belgilab qo'yildi.

Dastlab tajriba tariqasida Toshkentdagi 81 ta nufuzli maktabda joriy qilingan tartib bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda.

Rasul KUSHERBAYEV (deputat):

Toshkentdagi bir qator davlat maktablariga bolalarni pul asosida joylashtirish amaliyotining yo'lga qo'yilishi odamlarni boy va kambag'alga ajratishning yaqqol namunasi bo'libdi. Bunday adolatsiz taklifning kelib-kelib ziyo va ma'rifat tarqatuvchi, bolalarimizni adolat, tenglik, haqiqat hamda halollikka o'rgatuvchi ziyolilar idorasi vakillaridan chiqqanligi... bilmadim, nima deyishga tilim bormayapti, uyat, xullas.

Shahnoza SOATOVA (bloger):

...Biz aybdorlar jazolanadigan va sabablar bartaraf etiladigan islohotlarni kutgan edik. Bergan ham, olgan ham jazolanadigan, korrupsiyaga olib kelgan sabablar esa bartaraf etiladigan islohotlarni kutgan edik.

Shunday ham qo'shimcha pul to'lanadi-ku, deya tonirovka, chiroyli raqam va hokazolar uchun to'lovlar joriy etilishi bilan 1-sinfga qabul uchun to'lov joriy etilishi o'rtasida nima farq bor? Birinchisi hashamat solig'i (to'layverishsin istaganlar), o'sha hashamatsiz ham bemalol yashash mumkin bo'lgani uchun bu ish o'zini oqlar balki. Ikkinchisi esa eng zarur ehtiyoj va huquq (bepul va sifatli ta'lim) uchun to'lov. Busiz yashab bo'lmaydi.

To'g'ri, baribir pul to'lashyapti, qo'ng'iroq qildirishyapti. Lekin bolalarimiz sifatli ta'lim olishi uchun boshqa yo'li bo'lganida, o'sha to'g'ri yo'ldan borishga tayyor edik. Biz farzandlarimiz yaxshi bilim olishini istaganimiz uchun aybdormizmi?

Korrupsiyaga qarshi kurashda uni qonuniylashtirish emas, unga nisbatan murosasizlik va toqatsizlikni tarbiyalash lozim. Boshqa to'g'ri yo'lni hozircha ko'rmayapmiz.

Bizda nega yaxshi maktablar kam, budjetdan ta'lim uchun ajratilayotgan mablag'lar yetarlimi degan savollar ustida bosh qotirishimiz kerak? Xalq ta'limi vazirligi shu savollarni kun tartibiga olib chiqishi kerak edi. Sherzod Shermatov vazir bo'lgan ilk kunlarda Moliya vaziriga ochiq hujum qilib, o'qituvchilarning oyligini oshirish haqida jon kuydirgani yodimizda. Hatto o'qituvchilarning oyligini 1000 dollarga yetkazamiz degan so'zlar aytildi, xursand bo'ldik — ta'limga yaxshi kadrlar qaytar ekan dedik. Lekin nega endi muhokamalar boshqa mavzu va boshqa yo'singa o'tib ketdi?

Komil JALILOV (pedagog):

Bu mavjud korrupsiyani legallashtirishga xizmat qiladi, lekin muammoni hal etmaydi. Masalan, 6 yashar bola maktabga tayyor emas, deyildi. Ota-otasi 10 minimal oylik to'lasa, tayyor bo'lib qoladimi? Yoki bola uyda rus tilida muloqot qilolmasa, u fanlarni rus tilida o'rganishga tayyor emas, deyildi. Ota-onasi 10 minimal to'lasa, tayyor bo'lib qoladimi?

Oxirgi paytlarda mumkin bo'lmagan narsa pulini to'lasang, "mumkin"ga aylanyapti. Testdan o'tolmasang, OTMda o'qish mumkin emas, lekin super kontraktni to'lashga puling yetsa — mumkin. Mashina oynasini qoraytirish mumkin emas, bu xavfsizlikka tahdid, lekin har yili 16 million so'm to'lashga puling yetsa — mumkin. Mashinangda odam urib o'ldirsang qamalishing kerak, lekin puling bo'lsa, jarima to'la — ozodsan. Qonun hamma uchun barobar emas, puldor va pulsizlar uchun har xil bo'lib bormoqda.

Zilola MUHAMMADALI (ona):

Qizim mikrohududga kiradigan maktabga borishi kerak. Lekin sentabr oyida 6,6 yoshga to'ladi. Bu yoshdagi bolani har kim 6 emas, 7 yoshli deydi. Maktabga tayyor. Aslida mikrohududdagi bolalarni 6,6 yoshdan pulsiz, muammosiz qabul qilishardi. 6,6 yoshli bolani mikrohududdagi maktabga joylashda ota-onalar korrupsiyaga duch kelmagan-ku. Nega ho'l-quruq barobar yonyapti? Bundan keyin olinmagan pullar ham olinar ekan-da. Maktabga tayyor turgan bola ota-onasining puli bo'lsa — o'qiydi, bo'lmasa, salkam 8 yoshgacha bog'cha yoki uyda yuradimi?

NOZIMA:

Har bir masalaga individual yondashuv kerak. Korrupsiyaning oldini olish bahonasida masalaga umumiylashtirish yo'li bilan yechim topishmoqchi. Shu sababli ko'p noroziliklarga sabab bo'lmoqda. Har bir bandga alohida savol qo'yilishi kerak edi. Korrupsiya bo'lmagan maktablarda mikrohududni kengaytirish, yonma-yon joylashgan mikrohududlarda ota-ona uchun tanlash imkonini qoldirish va sentabrda 6,5 yoshdan oshgan bolalarga maktabga bepul borish imkoni berilishi lozim.

Shavkat MAMATQULOV:

Maktab tizimiga pul muomalasini kiritish mutlaqo noto'g'ri. Bu maktabdanoq bolalar o'rtasida tabaqalanishga olib keladi. Qolaversa, ota-onalar o'rtasidagi ma'naviy muvozanat ham buziladi. Farzandlarini o'ta iqtidorli hisoblagan va shunga yarasha ularning o'qishi uchun chiqim qilishga tayyor ota-onalar bolalarini xususiy maktablarga berishsin.

Bizda oxirgi yillar mobaynida ta'lim masalasida noto'g'ri tendensiya rivojlanmoqda. Bolani birinchi sinfdan pul bilan o'qishga joylash, bilim saviyasi shubhali bo'lgan yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun turli imtiyozlar o'ylab topish kabi holatlar fikrimga dalil bo'la oladi. Bu ketishda ertaga mamlakatda kadrlar masalasida inqiroz yuz berishi va kunimiz chetdan keladigan mutaxassislarga qolishi xavfi mavjud. Eng to'g'ri yo'l o'rta ta'lim tizimida keng ko'lamli islohot o'tkazish kerak. Maktablar faqat ta'lim bersin, tarbiya masalasini ota-onalarga qonuniy ravishda yuklash kerak. Har qanday maktabni (xoh u poytaxtda, xoh chekka hududda bo'lsin) bitirgan o'g'il-qiz repetitorning ko'magisiz oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish uchun yetarli bilimga ega bo'lishi shart.

Go'zal PINYOZOVA (o'qituvchi):

Muammoni bir taraflama o'ylab qaror qilingani ko'pchilikni norozi qildi. "Facebook" tarmog'ida 28 ming bola mikrohududidagi maktabga joylasholmagani haqida e'lon qilindi. Shu o'rinda mutasaddilar mikrohududidagi maktabda ta'lim sifati yaxshi bo'lmagani uchun boshqa maktabga farzandini bergan oilalar soni bilan ham qiziqib ko'rsa va qaror chiqarishdan oldin ikkala holatni taqqoslab olsa, nur ustiga nur bo'lardi. Qayerda sifat yaxshi bo'lsa, shu yerga talab yuqori bo'ladi. Talab kam bo'lgan maktablarda qachon ta'lim sifati oshadi? Talab kam bo'lgan maktablarni talab yuqori bo'lgan maktablarga filial sifatida biriktirishni taklif qilaman.

Azim MAQSUDOV:

Ushbu qaror loyihasi qayerda muhokama qilindi?! Bu holat menda ko'plab savollarni paydo qildi.

Birinchidan, ilgari bepul kvotalarni nazorat qilish imkoni bo'lmagan bo'lsa, to'lov tartibi joriy etilgach, nazorat qanday amalga oshiriladi? Nazorat sust bo'lgani uchun xalq pul to'lashi lozimmi?

Sig'imiga nisbatan ikki-uch barobar ko'p o'quvchi qabul qilayotgan maktablar to'g'risida ma'lumotlar bor ekan, nega bunga qarshi kurashilmaydi?

Ikkinchidan, "Mavjud kamchiliklarni tuzatmay turib, majburiy forma talab qilinishiga hali erta. Oldin sharoit, keyin talab", deb kechagina majburiy formani ortga surgan jamiyat va davlat uchun mazkur qarordagi talablar mos keladimi?

Uchinchidan, o'quvchilarni o'z hududidagi maktabga qamrab olishni majburiy joriy etishdan oldin maktablardagi sharoitlar, beriladigan bilim darajasi, o'qituvchilarning saviyasi va qolaversa, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktablarga qaratilayotgan e'tibor va ajratilayotgan mablag'lar bir xil bo'lishini ta'minlash zarur emasmi?!

To'rtinchidan, belgilangan eng kam ish haqining 10 barobaridan kam bo'lmagan miqdor, ya'ni 2 milliondan 10 million so'mgacha badal nimaga asosan belgilangan?

Shuhrat BAYAHMEDOV:

Bunday qarorlar maktab qabuli jarayoniga 15 kun qolganda emas, bir-yil yoki ikki yil davomida hukumat portalida muhokama qilinishi kerak. Mana bu xabarni eshitganimizga 10—15 kun bo'ldi. Qabul esa boshlandi. Bolalarim rus tilida muloqot qilishadi. Mikrohududimizda esa ta'lim faqat o'zbek tilida olib boriladigan maktab bor. Katta o'g'limni hududimizdan olisdagi ta'lim rus tilida olib boriladigan maktabga berganmiz. Endi navbat kichik o'g'limga yetgandi. O'sha maktabga qabul badali esa eng kam oylik ish haqining 20 barobari miqdori deb baholanibdi. Qisqa vaqtda 4 million so'mni qayerdan topaman? Bolalarimni boshqa-boshqa maktabga berish ham ko'plab noqulaylik va qo'shimcha sarf-xarajatni keltirib chiqaradi. Qolaversa, u o'zbek tilini bilmaydi. To'g'ri, ilgari mikrohududga kirmaydigan bolalarni qamrab olishda korrupsiyaga yo'l qo'yilgan. Ammo bu ota-onaga uncha qiyin bo'lmagan tarzda, maktabga biror yordam ko'rsatish usulida amalga oshirilgan. Unga sarflanadigan mablag'ni hisoblansa, 2 million so'mga ham yetmaydi.

Firuza SAMANDAR:

Ushbu taklif kasallikning emas, alomatlarining oldini olishdek foydasiz chora. Bu bilan eng muhim muammo hal bo'lib qolmaydi, ya'ni barcha maktablarda o'quvchilar soni va ta'lim sifati me'yorga tushib qolmaydi. Ota-onalarning talabi yuqori bo'lgan maktablarda boshqa maktablarda yo'q shart-sharoit, imkoniyatlar bor. Malakali pedagoglar, ta'lim sifati va o'qitish metodlari bo'yicha ustunlik mavjud. Ayrimlari shunchaki, ko'p yillardan buyon nufuzli deb hisoblab kelingan, hozir reytingi tushib borayotgan maktablardir. Shunday bo'lsa-da, ularga nisbatan ota-onalarning fikri ilgarigidek saqlanib qolgan. Shunga binoan talab hamon kamaymagan. Xo'sh, nima uchun maktablar orasida bunday tafovut bor? Xalq ta'limi mutasaddilari, avvalo, shu tafovutni bartaraf etish uchun kurashmog'i kerak.

Komil RASHIDOV:

Menda ham talay savollar tug'ildi: *Birinchidan,* o'sha 81 ta maktab va qolgan ta'lim muassasalari o'rtasidagi farq oshgandan oshib boraveradi. Sababi, nufuzli maktablarda qo'shimcha mablag' paydo bo'lyapti, qolganlarda esa yo'q. Xo'sh, buning kelgusidagi oqibatlari o'rganildimi?

Ikkinchidan, nimaga xalqning puli evaziga ta'limdagi korrupsiyaning sabablari bilan emas, oqibatlari bilan kurashilmoqda? Aslida nima uchun aholida o'sha maktablarga borish ishtiyoqi kuchli? So'rovlar o'tkazilganmi? Ahvol ichkaridan o'rganilganmi? Direktor pora olsa, faqat o'zi yemagan, o'qituvchilarga ham "tomizib turgan". Yo'qsa, nega o'sha maktablarda yaxshi o'qituvchilar yig'ilib qolgan?

Uchinchidan, kelajakda maktablarni imkoniyat jihatidan o'zaro tenglashtirish ishlari olib boriladimi?

Yulduz ORTIQOVA (jurnalist):

Yetti yoshga to'lishning shart qilib qo'yilishi noto'g'ri. Psixologiyada har bir bolaning yetilish davri individual bo'lishi isbotlangan. Xalq ta'limi tizimi mutasaddilari pedagogika va psixologiyani nima uchun nazardan chetda qoldirishdi?

Yurtdoshlarimizda ayni kunlarda bu kabi savol va mulohazalar hamda ularga jo'yali, xolis javob olish istagi tug'ilyapti. O'ylaymizki, bildirilayotgan fikr-mulohazalar mutasaddilar tomonidan o'rganilib, muammoga ijobiy yechim topiladi.

Sahifani Zilola MADATOVA tayyorladi.

"Tinch hayot nima ekanini unutgan edik. Ko'z o'ngimizda qanchadan-qancha odamlar jon berdi".

Assalom, baxtli bolalik!

Baxt va muvaffaqiyatga erishish uni his qilish va anglashdan boshlanadi. Bolaligi baxtiyor kechgan insonlar shu bois umr bo'yi hayotidan mamnun bo'lib yashaydi. Ammo hayot ziddiyatlarga to'la. Ba'zan uni kuzata turib, ota-onalari va o'zi tug'ilgan oilasining qilmishlari oldida ojiz qolgan bolalarni uchratamiz. Ularda tanlash imkoniyati bo'lmaganini yaqqol ko'rib turamiz. Ular ham baxtli bo'lishga, boshqa bolalar kabi shod-u xurram yashashga haqli.

"Mehr" dasturi doirasida Yaqin Sharqdagi qurolli hududdan O'zbekistonga qaytarilgan 156 nafar hamyurtimizning 40 nafardan ziyodi maktab yoshidagi o'g'il-qizlar ekani bir vaqtning o'zida har birimizni ham taajjubga, ham tashvishga soldi. Zero, jang maydonlarida tug'ilgan, esini tanigan bolalarning ko'zi va qalbida dard va yana tinch yurtda yashaydigan bolalar hali anglab yetmaydigan kemtiklar bordek go'yo...

Xalqimiz kechirimli, bolajon. Hukumatimiz shu fazilatlarga tayangan holda adashgan fuqarolarni yurtimizga qaytarish va ayni kunlarda ularni jamiyatga moslashtirish borasida zarur choralarni ko'rmoqda.

Dastlab dastur doirasida 156 nafar yurtdoshimiz Toshkent viloyatidagi "Bo'ston" sanatoriysiga joylashtirildi. U yerda yurtdoshlarimizga tibbiy, psixologik xizmatlar ko'rsatildi. Shu bilan birga, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 40 nafar bola bilan pedagogik va psixologik reabilitatsiya hamda moslashtirish ishlari olib borildi. Maxsus mobil maktab tashkil etildi. O'quvchilar yosh toifasiga ko'ra, boshlang'ich va yuqori sinfga bo'linib, ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilindi.

Bolalarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish uchun 10 nafar pedagog va 20 nafar psixolog, kerakli professional bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar jamoasi shakllantirildi. Mutaxassislar bevosita ishlaydigan kontingent maxsus tayyorgarlik talab etishini inobatga olib, 36 soatlik "Tanglik vaziyatda qolgan bolalar bilan ishlash" mavzusidagi maxsus kursda o'qitildi.

O'quvchilar bilan pedagogik-psixologik reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv ishlarini tashkil etish maqsadida reabilitatsiya dasturi ishlab chiqilib, bolalar bilan mazkur dastur asosida ish olib borildi. Mobil maktab o'g'il-qizlar o'zini qulay va xavfsiz his etishi uchun (2 ta sinfxona) odatdagi maktablardagi parta va boshqa kerakli jihozlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, bolalarga 12 nomdagi o'quv qurollari, maktab darsliklari va badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.

— Reabilitatsiya dasturi o'quvchilarning bilim darajasi, ijtimoiy-psixologik portretini o'zida aks ettiradi hamda undagi psixologik va pedagogik korreksiya va reabilitatsiya jarayonini monitoring qiladi. Bu dastur o'quvchilarni keyinchalik umumta'lim muassasalarida pedagogik-psixologik kuzatib borish uchun yo'riqnoma vazifasini o'taydi, — dedi XTV axborot xizmati boshlig'i Anvar Umarov. — Xalq ta'limi vazirligi tomonidan olib borilayotgan ishlar o'quvchilarning keyinchalik ta'limga to'liq jalb qilinib, jarayonga har tomonlama moslashib ketishi hamda stressdan xalos bo'lishiga yordam beradi.

Shukrona hissi o'n chandon ziyod

Andijonlik 25 yoshlar atrofidagi ayol(ayrim sabablarga ko'ra ism-familiyasi oshkor etilmadi)ning aytishicha, u Suriyadagi qamoqxonada farzandini dunyoga keltirgan. Bir yarim yoshga to'lay degan bolakay O'zbekistondan yordam borguncha yorug' olamni ko'rmagan va qamoqxonaning qorong'i, zax xonalarida ulg'aygan.

— Tinch hayot nima ekanini unutgan edik. Ko'z o'ngimizda qanchadan-qancha odamlar jon berdi. Yaralanganlarga yordam berish, nobud bo'lganlarni ko'mish ham xavfli edi, — deydi urush o'chog'idan qaytgan yana bir vatandoshimiz.

Maktab yoshidagi bolalar bilan shug'ullangan psixolog Barno Qurbonovaning aytishicha, bolalarning avvaliga yorug'likka, tinch hayotga ko'nikishi og'ir kechgan. Ularda tinch hayot ortidan yana qo'rqinchli kunlar keladi, degan xavotir bo'lgan. Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan velosiped va boshqa o'yinchoqlar sovg'a qilingach, bolalar o'yinchoqlarga ham sekin-asta ko'nika boshlashgan.

— Bolalarning qo'l motorikasi yaxshi rivojlanmagan bo'lsa-da, ko'pi arab, ingliz tilini yaxshi o'zlashtirgan. Bir hafta ichida bolalar ona tilimizda salom berishni, hol-ahvol so'rashishni o'rganishdi, — deydi amaliyotchi psixolog.

Darvoqe, Suriyada 15 yoshli hamyurtimizning farzandli bo'lgani va hozir bu qiz o'zi hali bola bo'lishi barobarida 4 oylik chaqaloqning onasi ekani ham hammamizni o'ylantirdi. Har birimiz tevarak-atrofimizdagi 15 yoshli tanish qizlarni ko'z oldimizga keltirib, ularning hammasi hali maktabda o'qiyotganini, ota-onasi bag'rida bolalik gashtini surayotganini eslab, shukrona keltirdik. Endi yetishgan tinch kunlariga shukrona hissi adashgan hamyurtlarimiz qalbida biznikidan o'n hissa ko'proq ekaniga shubha yo'q. Endi bu qorako'zlar uchun dahshatlar ortda qoldi. 12-iyun kuni sanatoriydagi 156 nafar fuqaro reabilitatsiyasining birinchi bosqichi yakunlandi.

Shu munosabat bilan 11-iyun kuni maxsus komissiya tomonidan hududlardan viloyat hokimlarining o'rinbosarlari ishtirokida 47 nafar ayolga fuqarolik pasporti va 102 nafar bolaga tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarni topshirish marosimi o'tkazildi. Tadbir doirasida 142 nafar fuqaroga, jumladan, 47 ayolga eng kam oylik ish haqining o'n barobari va 95 nafar bolaga eng kam oylik ish haqining besh barobari miqdorida moddiy yordam ko'rsatildi.

Viloyat hokimliklari tomonidan bolalarni turarjoy manzili bo'yicha bog'cha, maktabga joylash, ayollarga hunar o'rgatish va ish bilan ta'minlash masalalari hal etilishi belgilandi.

Fuqarolik pasportini qo'lga kiritgan ayollar tikuvchilik, oshpazlikka o'qish, ishga joylashish rejalari borligini aytishdi. Tug'ilganlik haqida guvohnoma olgan o'smirlar esa qaysi o'quv yurtida tahsil olishni ham rejalashtirishga ulgurishibdi.

Mutaxassislarning xulosalariga ko'ra, Suriyadan qaytgan hamyurtlarimiz hozir jamiyatga qo'shilish, integratsiyaga tayyor.

3 nafar yetim bola Mehribonlik uyiga, 3 nafari "Kichkintoy" bolalar uyiga joylashtirildi. 2 nafar bola o'zining qarindoshlariga vasiylik asosida rasmiylashtirib berildi. Rossiya Federatsiyasi fuqarolari bo'lgan 1 ayol va 4 nafar farzandi Vataniga qaytarilguncha reabilitatsiya qilish markaziga joylashtirildi. 1 nafar fuqaro shifoxonada davolanmoqda.

Har bir bola ishonchli manzilda

"Mehr" dasturining birinchi bosqichida 30-maydan 12-iyungacha fuqarolarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga moslashtirish maqsadida quyidagi tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan bolalarga erkin mavzu bo'yicha rasmlar chizdirildi, musiqali dastur asosida madaniy hordiq chiqarildi. "O'zbekiston — Vatanim", "Mening mahallam va oilam" mavzularida tarbiyaviy mashg'ulotlar olib borildi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'g'il-qizlarga O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi va ramzlari o'rgatildi. Bolalarning sezgi, xotira, tafakkurining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida "Lyusher" va "Psixogeometriya" diagnostikalari o'tkazildi. Bolalar uchun bog'cha va maktab sinflari tashkil etildi.

UNICEF xalqaro bolalar tashkiloti tomonidan psixolog va pedagoglar uchun og'ir vaziyat, mojarolar va harbiy to'qnashuvlar bo'layotgan hududlardan olib chiqilgan bolalar va onalarga tanglik holatidan chiqishga ko'maklashish, tengqurlariga moslashish jarayonlarini o'tkazishda ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazildi.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan to'liq tibbiy ko'rik tashkil etildi. 4 nafar pediatr, 4 nafar terapevt va bitta tez yordam brigadasi kun-u tun navbatchilik asosida fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatdi.

1-iyun kuni Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan bayram dasturi o'tkazildi, konsert va qo'g'irchoq teatri namoyish etildi. Barcha bolalarga yozgi sport komplekti, velosiped, o'yinchoqlar, 10 donadan badiiy kitoblar majmuasi va boshqa sovg'alar ulashildi. Ramazon hayiti bayrami kunlari milliy taomlar pishirilib, bayram tadbiri tashkil etildi. Ayollarga liboslar, parfyumeriya vositalari tuhfa qilindi.

Fuqarolarni reabilitatsiya qilish tadbirlari BMTning UNICEF tashkiloti tomonidan o'rganilib, jarayonga yuqori baho berildi. Barcha tadbirlar BMT tavsiyalari va xalqaro me'yorlarga mos kelishi alohida e'tirof etildi.

Shu bilan birga, "Mehr" dasturini amalga oshirish doirasida fuqarolar reabilitatsiyasining ikkinchi bosqichida viloyat hokimlari raisligidagi maxsus guruhlar tomonidan ayollarni mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish yoki kasbga tayyorlash kurslarida o'qitish, bolalarni o'z hududidagi maktabgacha va umumta'lim muassasasiga joylashtirish, tibbiy yordam uchun shifokor va patronaj biriktirish tadbirlari bajarilishi rejalashtirilgan.

Bag'rikenglik qonimizda bor

Bu hodisalar Ikkinchi jahon urushi yillari toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov oilasining boshpanasiz, turli millatga mansub 16 bolani tarbiyasiga olib, so'nggi burda nonini ham ular bilan baham ko'rganini yodimizga soladi. Yurtimizda hamon shunday bag'rikeng insonlar yashayapti va ular uchun adashgan hamyurtlariga o'z safidan joy berish, bolalariga quvonch ulashish qiyin bo'lmaydi.

Zilola MADATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Musiqa darslariga innovatsion yondashuv

Umumta'lim maktablarining quyi sinflarida musiqa darsini tashkil etish jarayoniga yangi o'zgarishlar kiritishni zamonning o'zi talab etmoqda. Ayniqsa, maktabda musiqa madaniyati darsini tashkil etishda innovatsion yondashuvni joriy etish muammosining mavjudligi bir qator vazifalarni aniqlash imkonini beradi.

Bugun G'arbni o'z iskanjasiga olayotgan "ommaviy madaniyat" bizga ham ta'sir ko'rsatmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Bolalarning bo'sh vaqtlari qanday va qay tartibda o'tayotgani, ular internet tarmog'idan qay maqsadlarda foydalanayotgani ustozlarni ham qiziqtirishi kerak. Musiqa o'qituvchilari bugungi global rivojlanish asrida bolalar uchun ularni tashqi nojo'ya ta'sirlardan himoya qiladigan usullarni ishlab chiqishi zarur. Har bir dars faqatgina musiqaning o'zi bilangina bog'lanib qolmay, innovatsion yangiliklarga hamohang bo'lishi maqsadga muvofiq. Boshqacha qilib aytganda, biz bolani "ommaviy madaniyat" ta'siridan qutqarishga harakat qilishimiz kerak. Maktabdagi zamonaviy musiqa ta'limining asosiy maqsadi — musiqa madaniyatini shakllantirish.

Musiqiy ta'lim har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Badiiy tasvir, ijodkorlik va ilhom baxsh etgan musiqa o'ziga xos tushunchadir. U bolalarda non'anaviy fikrlash, ijodkorlik hissi va dunyoni aks ettirish qobiliyati, mustaqil hayotiy pozitsiyani shakllantiradi. Musiqa darslarida innovatsion dasturni qo'llash uchun bir qancha omillarni asos qilib olish mumkin. Bu, asosan, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayonida asosiy fikrlarni aniqlash imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash bugungi kunda ko'p mezonlarga muvofiq yangilanishi zarur.

Musiqa darsida o'quv jarayonini tashkil etishda, avvalo, o'qituvchi hissiy(psixologik) atmosferaga ta'sir o'tkazishi kerak. O'qituvchi va o'quvchilar mashg'ulot jarayonida o'zaro do'stona hamda ijodiy munosabatga kirishadi. Eng avvalo, o'qituvchi o'quvchilarning umumiy psixologiyasini chuqur o'rganishi kerak. Yangi mavzuni zavq bilan o'tishi, "o'qituvchi-do'st", "o'qituvchi-hamkor" formulasi orqali darsda ijodiy muhit yaratish eng samarali yo'ldir. Dars yakuniga qadar o'qituvchi faqatgina o'zi so'zlashi, o'quvchilarni muloqotga undamasligi aslo mumkin emas. O'qituvchi o'zi berayotgan yangi ma'lumotga o'quvchilardan qo'shimcha ma'lumot ham talab etishi kerak. Chunki bugungi davr o'quvchilari uzluksiz internet tarmog'i orqali ko'plab yangiliklardan xabardor bo'lib turadi.

Hayotimizni musiqasiz tasavvur etolmaymiz. Uyda, maktabda, ko'cha-ko'yda turli musiqalarni eshitamiz. Ammo beixtiyor o'z istaklarimizga ko'ra ularni tanlaymiz. Masalan, bolalarni klassika bilan tanishtirish, ularda bu janrga muhabbat uyg'otish va konsert zallarida tinglash mumkin bo'lgan musiqa ekanligini tushuntirish mumkin. Bunda klassik, pop, rok janrlarining tarkibiy qismini aks ettiradigan asarlarni tanlashimiz samara beradi. Ushbu uslublar yordamida bolalar o'zlarining ruhiga yaqin ritmlar orqali mumtoz musiqa bilan tanishadi. Qo'shiqni o'rganish va uni ijro etish jarayonida innovatsion yondashish ham mumkin. Bugungi kunda bolalar o'zini haqiqiy san'atkor kabi his etish imkoniyati mavjud. Ular dars davomida fonogramma(minus) asosida qo'shiq kuylashi mumkin.

Musiqa darsining ijod namunasi ekanligini tushunish va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun bunday dars texnik jihatdan jihozlangan sinfda (kompyuter, audio tizim, konsol, mikrafonlar va boshqalar) yorug' xonada o'tkazilishini ta'minlash zarur. Zamonaviy musiqa darsining bu kabi ko'rinishi — XXI asrning musiqiy sabog'idir.

Bugungi kunda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar o'zgardi. Endi dars yangi shakllarni izlash tamoyiliga asoslanadi. Ushbu jarayonlarni chuqur his etgan o'qituvchi har bir darsga innovatsion tarzda yondashadi.

Ulug'bek MIRZAAHMEDOV,
Bo'stonliq tumanidagi
2-maktabning musiqa
madaniyati fani o'qituvchisi

Taklif

Moddiy-texnik baza mustahkam bo'lsa...

Bugun farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasi uchun sarflanayotgan mablag' kelajakda katta sarmoya bo'lib qaytadi. Mustaqillik davrigacha qurilgan maktablar holati bilan hozirgi o'quv binolari o'rtasida katta farq bor. Ta'lim maskanlaridagi kompyuter, interaktiv doska, o'quv qurollari, shinam sport zali o'g'il-qizlarning qulay shart-sharoitlarda bilim olishiga qaratilgan.

Qo'shko'pir tumanidagi 21-maktab Xayrobod qishlog'ining "Ko'hna zey" mahallasida joylashgan bo'lib, 2004-yili foydalanishga topshirilgan. 630 o'ringa mo'jallangan bilim maskanimizda 760 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. Ularga 77 nafar pedagog bilim bermoqda. Maktabimizda fizika, biologiya, kimyo fan kabinetlari, 3 ta chet tillar xonasi, zamonaviy kompyuter bilan jihozlangan informatika va axborot texnologiyalari xonasi, interaktiv doska o'quvchilar ixtiyorida.

Maktab kuzatuv kengashi raisi, "Olmazor qurilish invest" MChJ rahbari Davlatnazir Egamov kutubxonamizga 2050000 so'mlik 60 nomdagi badiiy adabiyotlarni sovg'a qildi. Kengash a'zolari, ota-onalar va homiylar ko'magida 13 ta plazmali televizor sotib olib, sinflarga o'rnatdik. O'qituvchilarimiz darsni undan foydalangan holda o'tishmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mavzu o'quvchiga yanada tushunarli va esda qolarli bo'lishini ta'minlaydi. Ba'zida o'quvchi doskadan zerikadi, nazarimda. Shuning uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish lozim. Buning uchun maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida budjetdan tashqari mablag' topishga harakat qilyapmiz. Hududimizdagi 4000 kv.metr maydonda g'alla ekkanmiz, qolgan maydonlarda poliz va sabzavot ekinlari parvarishlanyapti. Mo'jaz issiqxonamiz ham bor. Har ishda ilg'or pedagogik jamoamizning ishtiyoqi va ertangi kundan umidi katta.

Valijon RAHIMOV,
Qo'shko'pir tumanidagi
21-maktab direktori

Sinab ko'ring

Sinchkovlik — til o'rganishning muhim sharti

Psixologlarning ta'kidlashicha, xotirani mustahkamlovchi usullardan biri — bu yangi til o'rganish. Yangi tilni o'zlashtirishga kirishgan o'rganuvchi 90 foiz vaqtini so'z yodlashga sarflar ekan. Ingliz tilini o'rganishni boshlagan har bir inson so'zlarni qanday qilib tez va oson o'zlashtirish haqida bosh qotiradi. Negaki, ingliz tili fonetikasining o'zbek tili fonetikasidan farqi katta. Harflar turli o'rinda turlicha talaffuz qilinadi, omonimlar ko'p uchraydi va boshqa farqlar mavjudki, bu til o'rganishga endigina kirishganlar uchun murakkabdek tuyuladi.

Litsey, maktab o'quvchilari hamda abituriyentlar bilan ishlash jarayonida ularga so'z yod olishning bir necha metodlarini taqdim qildim va qaysi usullar ko'proq samara berganligi, ularga ma'qul kelganini aniqlashga urindim.

Lug'at yodlash jarayoni uch qismdan iborat:

— so'zlarni tanlab olish;
— so'zlarni eslab qolish;
— so'zlarni mustahkamlash.

So'zlarni tanlab olish — bu biror-bir matn, qo'shiq, mashq, bir so'z bilan aytganda, kontekstdan notanish so'zni ajratib olish yoki biror mavzuga oid so'zlarni yodlash uchun tanlab olish jarayonidir. Eslab qolish esa tanlangan so'zlarni turli metodlar yordamida yodda saqlashdir. Mustahkamlash haqida esa keyinroq to'xtalamiz. Hozircha tavsiya qilmoqchi bo'lgan metodlar xususida so'z yuritamiz.

Tasavvuringizni ishga soling!

Buning uchun yod olinayotgan yangi so'zga o'xshash xayolingizga birinchi kelgan o'zbekcha so'zni qatnashtirib gap tuzing va esda saqlang. Masalan: *art* (art) — san'at. O'xshash so'z — mard. Mard odamlar o'z san'atini ko'rsatdi. Window *(uindou)* — deraza, oyna. O'xshash so'z — windows. *Oynangizga qarasangiz, kompyuterda "windows" yozuvi chiqqani ko'rinadi va hokazo.*

Inson xotirasi miyaning qaysi qismi qanday ishlashi bilan bog'liq. Miyaning chap yarimshari: asosan, mantiqqa javob beradi, ya'ni raqamlar, matnlar, yozuvlarni yodlashga mo'ljallangan va u 10 foiz xotira salohiyatiga ega. O'ng taraf esa asosan emotsiyalarga javob beradi. Bizda 5 ta his-tuyg'u organi mavjud. Bular — ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid sezish va tana orqali his etishdir. O'ng qism 90 foiz xotira salohiyatiga ega. Undan 80 foizi tasavvurga tegishli. Shu sabab, maktabgacha bo'lgan davrda bolalarning eslab qolish qobiliyati yuqori bo'ladi, ya'ni ular tasavvur orqali ma'lumotlarni qabul qiladi. Yozish, o'qishni o'rgana boshlaganlarida chap taraf faollashadi va o'ng taraf ikkinchi o'ringa tushadi. Demak, hayotimiz davomida tasavvurimiz bilan ishlaydigan o'ng tarafni faol saqlashga harakat qilishimiz lozim.

Lug'at daftarni noan'anaviy usulda yuriting!

Biz uchun an'anaviy, ommabop va qulay deb hisoblangan usul — bu daftarni uch qismga *English/Transcription/Uzbek* tarzida bo'lib yodlash. To'g'ri, bu usul yillar davomida qo'llab kelingan va o'ziga xos afzalliklarga ega. Xususan, maktab o'quvchilari yodlayotgan so'zlarini raqamlab yodlashadi, ularning sonini oshirishga ham qiziqib, ma'lum darajada samaraga erishishlari mumkin. Ammo undan-da ko'proq natijaga erishishning oson usullari ham bor. Buning uchun til o'rganuvchi lug'at daftarini yuritishda ijodiy qobiliyatini ishga solishi kerak. Masalan:

— so'zga ingliz tilida izoh (definition) yozish: **wake up** — stop sleeping;
— qaysi so'z turkumi ekanini yozish (ingliz tilida): **run** (verb);
— antonim, sinonim, paronim, omonim, fraza, so'z birikmalari keltirish: **continue** — go on;
— so'zni qismlarga bo'lish: **unhappy** — un-happy;
— rasm chizish (karikatura varianti ma'qulroq): **smile** ☺;
— so'zni qatnashtirib maqol, idioma yoki gap yozish: **home** — "My home is my castle";
— so'z oilasi tuzish: **fruit** — apple, banana, pear, lemon (buni diagramma ko'rinishida qilsa ham bo'ladi):



Bular orasida o'quvchilarga ko'proq ma'quli va yaxshi natija beradigani rasm chizish usuli bo'lib, u ham tasavvur bilan bog'liq.

Matn ustida ko'proq ishlang!

Tanlangan har qanday matn o'rganuvchi uchun qiziq bo'lishi zarur. Yangi matn bilan ishlaganda dastlab uning umumiy mazmunini tushunish uchun ko'z yugurtiriladi. Keyin to'liq tushunish uchun yangi so'zlar ustida ishlanadi. So'zlar tarjima qilinib, matnning mazmuni to'liq anglangach, ko'p so'zlar kontekst orqali xotirada qoladi. Kezi kelganda, tezkor xotiramiz orqali eslamasak-da, bir necha soniya yoki daqiqada matn mazmuni bilan unga bog'lanib kelgan so'zlar orqali ham yodimizga tushadi. Shuningdek, matn tarjima qilayotganda lug'at kitobi bilan ishlash ko'nikmasi ham a'lo darajada shakllanadi.

Elektron lug'atmi yoki kitob?

O'quvchilar bilan shug'ullanishni boshlamasdan oldin ularga shu savol bilan murojaat qilaman. Ko'pincha ular elektron lug'atni ma'qul ko'rishadi (Ammo kitobdan foydalanishni o'rgangach, bu usul afzal ekanini anglashadi). Elektron lug'atdan foydalanuvchilar kam vaqtda ko'proq natijaga erishaman deb hisoblaydi. O'quvchilar uchun dastlab lug'at kitobdan so'z izlash qiyin tuyuladi. Aksariyat o'quvchilar bunga erinadi. Ingliz tilida omonimlar, frazalar ko'p va murakkab bo'lgani uchun tarjimada ehtiyotkor hamda sabrli bo'lish lozim. Lug'at kitobdan foydalanganda kerakli so'zni izlash jarayonida ham ba'zan o'zimizga qiziq bo'lgan boshqa so'zni uchratib, eslab qolamiz. Demak, foydali ish koeffitsiyenti ham oshadi. Ustiga ustak mehnat orqali erishilgan hamma narsa qadrli bo'lib, xotirada uzoq saqlanadi. Elektron lug'atdan tezkor tarjimada, biror so'zni esga tushirish uchun ko'cha-ko'yda yoki boshqa joyda foydalanish mumkin.

O'zingizga qiziq mashg'ulot tanlang!

Bugungi kunda ko'pchilik chet el qo'shiqlarini sevib tinglaydi, filmlarini tomosha qiladi. Demak, bundan ham to'g'ri foydalanib, yaxshi natijaga erishish mumkin. Subtitrli filmlarni tomosha qilish — eshitish, gapirish ko'nikmasini rivojlantiradi va, eng muhimi, ko'p so'zlar yodimizda qoladi. Yoki qo'shiqning mazmunini tushunishga bo'lgan ishtiyoq ham o'rganuvchining yangi so'zlarni izlab topib, o'rganishiga turtki bo'ladi. Bu qiziquvchi uchun mushkul emas, aksincha, maroqli jarayondir.

Kundalik hayot bilan bog'lab o'rganing!

O'quvchilik kezlarimda yoshi kattaroq qarindoshim yoki tanishim ingliz tilini o'rganayotganimni bilsa, yon-atrofimizdagi buyumlar nomini inglizchada ayt deb so'rardi. Ammo men bunga har doim ham javob bera olmasdim. Bejiz bunday savollar berilmaydi. Til o'rganuvchidan o'ta sinchkovlik talab etiladi. So'zlarni oddiy, turmush tarzimizda qo'llanadiganlaridan boshlab o'rganish kerak. Masalan: afishalar, kiyimlar, yeguliklardagi yozuvlar tarjimasini stikerlarga yozib, ko'z ko'p tushadigan joylarga yopishtirish mumkin. Har bir til o'rganuvchi o'zi foydalanayotgan buyum ingliz tilida nima deb nomlanishiga qiziqishi kerak. Dars jarayonida ham sinfdagi muhitdan kelib chiqib misollar aytilsa, bolalar yaxshi eslab qoladi. Grammatika o'tilayotganda ham gaplar hayotiy, kulgili va ta'sirchan misollar bilan tushuntirilsa, o'quvchilar o'sha zahoti jumlani eslab qoladi. Masalan, ingliz tilida **"top banana"** idiomasi *eng ilg'or, e'tibordagi inson* haqida gap ketganda ishlatiladi. Men bu idiomani qo'llash uchun quyidagi gapni tuzdim, o'quvchilarim xotirasida qoldi: *Nursulton is the* **top banana** *of the group.* Chunki haqiqatan ham, Nursulton sinfdagi eng ilg'or o'quvchi.

Lug'at boyligimiz ikkiga bo'linadi: aktiv va passiv. Aktiv lug'at gapirganimizda, yozganimizda to'g'ridan to'g'ri eslaydigan so'zlarimizdir. O'qiganda kontekstda ko'rib, eshitganda eslaydigan so'zlarimiz passiv lug'atimiz, ya'ni uning yuzaga chiqishiga turtki yoki biror omil kerak. So'zimiz avvalida aytib o'tilgan uchinchi bosqich so'zlarni mustahkamlash bosqichi edi. Demak, har qanday yangi tilni qaysi metod yordamida o'rganmaylik, takrorlash, mustahkamlash talab etiladi. Zero, u ona suti bilan qon-qonimizga singmagan, biz uchun begona til. Mustahkamlash uchun, avvalo, bu so'zlarni tez-tez qo'llash, kichik-kichik, keyinchalik kattaroq matnlar tuzib, juda kengaytirib, yodlab borish lozim. Qancha muddat oralig'ida takrorlash kerak degan savolga olimlar har xil fikr bildiradi. Masalan, Styuard Redman haftasiga bir kun bir soatni takrorlashga ajratgandan ko'ra, har kuni besh daqiqa vaqt ajratgan ma'qul deydi. Sababi, yangi o'rganilgan so'zlar besh kungacha esda saqlanadi. Agar u takrorlanmasa, esdan chiqishi, passiv lug'atga aylanish ehtimoli bor. Mustahkamlash mashqlarini qancha ko'p bajarsak, passiv lug'at ikkinchi o'ringa tushadi va bu haqiqiy yutug'imizga aylanadi.

Hilola RASHIDOVA,
Sirdaryo viloyat XTB
tasarrufidagi 1-xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan maktab-internat-
ning ingliz tili fani o'qituvchisi

Nostandart fikrlashga o'rgatadi...

Kimyo murakkab fan hisoblanadi. Uni o'qitishda samarali natijaga erishish uchun turli metod va usullarni qo'llash lozim.

Masalan, men darslarimda mavzularning murakkablik darajasi va maqsadiga qarab qator metodlardan foydalanaman. "Himoyaga kim chiqadi?" usuli o'quvchilarni birdek faol bo'lishga undaydi. Shuningdek, ularning mas'uliyatini oshiradi. "Tez savolga — tez javob" usulini ham qo'llab, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, yod olingan tushunchalarni bayon qilishga o'rgataman. Bundan tashqari, "Tarmoqlar (Klaster)", "Aqliy hujum", "Matnni davom ettir", "Raqamli diktant", "Keys-study", "FSMU", "SWOT-tahlil", "Venn diagrammasi" kabi metodlardan mashg'ulot jarayonida foydalanish o'quvchilarning fanga qiziqishini yanada oshiradi.

Bu kabi usullarni dars jarayonida qo'llash o'quvchilarni tahlil etish, mustaqil fikrlash va ijod qilishga yo'naltiradi. Shuning uchun ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati katta. Qolaversa, ular o'quvchilarni tayyor bilimlarni mustaqil topib, o'rganib, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatadi.

"Aqliy hujum" muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llanadigan metod bo'lib, mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga undaydi, shuningdek, o'quvchilarni o'z tasavvur va g'oyalaridan ijodiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malaka hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoni tug'iladi. Bu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanganda o'quvchilar erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rganadi.

"SWOT-tahlil" metodi mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlash, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

"Keys-study" metodi real vaziyatni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida muayyan bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakterига ega bo'ladi. Biror jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, muayyan algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

"Atamalar tahlili" metodi esa o'quvchilarning mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimini mustaqil tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxislash maqsadida qo'llanadi.

Ushbu metodlardan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq holda kechadi. Muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilishiga, qolaversa, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Umidaxon SODIQOVA,
XTV tasarrufidagi tabiiy fanlarga
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim
maktabining kimyo fani o'qituvchisi

Tajriba

Bo'g'indan so'z yasating!

Bola o'zi kashf qilgan, o'zi izlab yechimini topgan axborotni ko'proq xotirasida saqlab qoladi. Shu bois ona tili darslarini yangi texnologiyalar, o'yinlar asosida o'tish samara beradi. Bu o'rinda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, fandagi o'zaro bog'liqlikka ham e'tibor qaratish zarur.

Bolalar oldin o'tilgan bo'limlardagi bilimlarni esdan chiqarmasligi uchun bir darsda ham fonetika, ham leksikologiya, ham sintaksis bo'limlarini o'zaro bog'laydigan o'yinlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Masalan, **"Davom ettir"** ta'limiy o'yinini fonetika bo'limidagi bo'g'inlarni o'rganishga qaratilgan saboqlarda, leksikologiya va sintaksis bo'limlarida qo'llash mumkin.

Darsda o'qituvchi o'quvchilarga ochiq yoki yopiq bo'g'inlarni beradi: *Bo-, bo'-, ji-, no-, sa-, gi-, za-, bi-,* bolalar bo'g'inga mos bo'g'in qo'shib, so'z hosil qiladi.

O'quvchilar *bobo, bola, Bosit, Boqi, Botir, boxabar, bokira* singari so'zlarni yasashi mumkin. Yoki:

Tan-, bek-, tir-, mak-, hukm- kabi bo'g'inlardan *tanbeh, tandir, tansiq, tantana, tanga, tanbal* kabi so'zlarni yasash mumkin.

O'qituvchi birinchi guruh hosil qilgan yangi so'zlarning boshqa guruh tomonidan takrorlanmasligiga e'tibor berishi va bolalarni ham shunga yo'naltirishi kerak. O'quvchilar bo'g'inni davom ettirishda lug'atga murojaat qiladi va nutqini shu so'zlar bilan boyitishga erishadi. Bundan tashqari, bolalar yangi so'zlarning ma'nosini sharhlab beradi, ularning sinonimi, antonimini topishga harakat qiladi. Bu bilan leksikologiyada olgan bilimini takrorlaydi. Shu bilan birga, bu so'zlarni daftarga yoki doskaga yozib, sintaksis bo'limini ham takrorlab oladi.

Bu holatda o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni va sinf taxtasini ikki qismga ajratadi. Har bir guruhdagi bolalardan navbat bilan bo'g'inlarni davom ettirishini so'raydi. Bunda ikkala guruh vakillari baravar boshlaydi, o'quvchi taxtaga so'zni yozguniga qadar navbatdagilar boshqa so'zni o'ylab turadi.

O'quvchilarda badiiy matn, insho yozish malakasini shakllantirish uchun esa ularga kichik-kichik matn tuzdirish tavsiya qilinadi. Mustaqil fikrlashi, bir-biriga taqlid qilmasligi uchun bolalarga individual matnlar berish lozim. O'qituvchi har dars oxirida bolaga matn tuzdirishi. Qolip (klishe) bo'lib qolgan mavzularni bermaslik kerak. Shundagina bola mustaqil va erkin fikrlashni, eng asosiysi, fikrlarini qog'ozga yozma bayon qilish malakasini shakllantira oladi.

Durdona HAKIMOVA,
Buxoro tumanidagi
23-maktab o'qituvchisi

Abituriyent — 2019

Bu yil test sinovi qanday o'tadi?

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Kutilgan kvota

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2020-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qarori tasdiqlandi. Unga ko'ra, bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga 80 430, sirtqiga 19 985 va kechki ta'lim shakli uchun esa 1 985 ta kvota ajratilgan. Umumiy hisobda magistratura ta'lim yo'nalishi bo'yicha 7 695 ta kvota belgilangan. Shuningdek, qarorga asosan mamlakatimiz Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligi tavsiyanomasiga ega bo'lgan abituriyentlar uchun esa bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakliga 4 008, sirtqiga 908 va kechki shakli uchun esa 99 ta kvota ajratilgan. Ta'lim shaklining har biri bo'yicha alohida 5 foizlik qabul ko'rsatkichlari ham tasdiqlangan bo'lib, endi tavsiyanomaga ega abituriyentlar, eng avvalo, o'sha kvota doirasida o'zaro bellashadi. O'zgalarga xalal bermaydi.

Testlar qachon, qayerda va qay tartibda o'tkaziladi?

Davlat test markazi bosh boshqarmasi boshlig'i Barno Rajabovning aytishicha, bu yil abituriyentlar respublikaning istalgan hududidan turib hujjat topshirishi, boshqa hududda bo'layotgan test imtihonidan o'tishi mumkin. Faqat abituriyent ro'yxatga olinayotganda qayerda test topshirmoqchi ekanini aniq ko'rsatishi lozim. Masalan, abituriyent birinchi SamDU, so'ng FarDU va O'zDJTUni tanladi, hujjat topshirayotganda imkoniyatidan kelib chiqib, imtihonni Qashqadaryoda topshirmoqchiligini aytadi va imtihon kuni belgilangan hududga boradi.

Bugungi kunda respublika miqyosida 69 ta bino test sinovlari o'tkazish uchun ajratilgan bo'lib, ularning eng kattasi 1710 o'ringa mo'ljallangan. Mazkur binolarda bir kunda 2 smenada 12 075 ta guruhda 38 310 nafar abituriyent test topshirishi mo'ljallangan. Test sinovlari shaffofligini ta'minlash maqsadida 6 200 nafar nazoratchi jalb etilishi nazarda tutilgan.

Oldinroq hujjat topshirgan ertaroq test sinovlarida qatnashadi yoki kech hujjat topshirgan imtihonning so'nggi kunlari imtihon topshiradi degani emas. Abituriyentlarning qachon imtihonda qatnashishi fanlardan test materiallari tayyorligi va sinov o'tadigan joylarning shayligiga bog'liq. Test sinovlari o'tkaziladigan kun va vaqti davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi va bu to'g'ridagi axborotlar Davlat test markazining rasmiy saytida e'lon qilinadi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, imtihon topshiruvchilar soni ko'payib ketsa-yu, belgilangan muddat ichida imtihonlar to'liq yakunlanmasa, imkoniyatga qarab test sinovlari kuni uzaytirilishi mumkin. Shuningdek, o'tgan yili 17 353 nafar abituriyent turli sabablarga ko'ra test sinovlarida qatnashmagan. Ular orasida kech qolgan abituriyentlar ham ko'pchilikni tashkil qilgan. Bu yil ham ma'lum vajlar bilan kech qolgan abituriyentlar test sinovlariga kiritilmaydi. Agar abituriyent imtihon o'tkaziladigan hududga kirgan bo'lsa-yu, test o'tkaziladigan binoga kech qolib kelsa, testlarga qo'yilishi mumkin. Lekin hududga kechikib kelgan abituriyent sinovlarga qo'yilmaydi.

Test topshiriqlaridagi yangiliklar

2017-yili 37 736 ta test topshirig'i tuzilgan bo'lsa, 2018-yili bu ko'rsatkich 196 931 tani tashkil etgan. Shundan 179 mingdan ortig'i test imtihonlarida qo'llanilgan. Joriy yilgi qabul test sinovlari uchun esa 180 mingdan ortiq test topshiriqlari shakllantirilgan. Savollar bazasi Turkiya, Janubiy Koreya, Rossiya hamda Yaponiya tajribalarini o'rganish asosida shakllantirilgan. DTM mutasaddilari joriy yilgi test topshiriqlarida grafika, yozuvsiz xarita hamda rasmlar ham bo'lishini ta'kidlamoqda. Buning uchun Kartografiya va geodeziya ilmiy ishlab chiqarish korxonasi bilan shartnoma tuzilib, 40 dan ortiq shablon xaritalar olingan va ular asosida test topshiriqlari ishlab chiqilgan.

Imtihondan keyin qayta hujjat topshiriladi

Imtihonlar o'tgandan so'ng abituriyentlar yelkasidan tog' qulagandek bo'ladi. Endi ularni natijani bilish hayajoni bosa boshlaydi. Bu yil imtihon natijalari sinovning ertasi kuni ma'lum qilinsa, talabalikka tavsiya etilgani yoki etilmagani bir hafta ichida e'lon qilinadi. Bu yildan o'qishga kirolmagan abituriyentga test sinovida to'plagan bali haqida sertifikat beriladi va u 3 yilga qadar amal qiladi. Kelgusi yillari abituriyent to'plagan ball o'qishga kirish uchun yetarli bo'lgan taqdirda u talabalar safiga qabul qilinadi. Bunda 3 yil ichida EKIHning yarmi miqdordagi badalni qayta to'lashi ham shart bo'lmaydi.

Abituriyent talabalikka tavsiya etilgandan so'ng hujjatlarini olib, o'zi o'qishga kirgan OTMga boradi va hujjatlarini topshiradi. Talabalikka tavsiya etilmagan va oshirilgan kontrakt talabgorlari bundan mustasno. Agar hujjatlarni topshirish chog'ida ma'lumotlar xato berilgan yoki ma'lumotlar xatoligi yuzasidan biror noqonuniy harakat aniqlansa, talaba o'qishdan chetlatiladi.

Fayoza AVLAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

"Ma'rifat"da test savollari chop etilishi nega to'xtab qoldi?

Davlat test markazi izoh berdi

(Davomi. Boshi 1-betda.)

DTM rahbariyatining mana shu shijoati, dadilligidan umidlanib, abituriyentlarning OTM imtihonlariga maqsadli tayyorgarlik ko'rishiga ko'maklashish maqsadida gazetamizda 2019-2020-o'quv yili uchun test sinovlarida tushadigan savollarni e'lon qilishni rejalashtirgandik. Tashabbusimiz DTM rahbariyati tomonidan ijobiy qabul qilindi. Ilk muzokaralar muvaffaqiyatli o'tdi. Bu haqida gazeta va saytimizda, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizda e'lon berdik. Saytimizdan iqtibos olgan holda bu xabarni boshqa OAVlar ham tarqatdi. Xususan, DTM markazining saytida "Ma'rifat" gazetasida test savollarining chop etilishi nashrning mediabozorda o'z o'rnini topish borasidagi yaxshi loyiha sifatida e'tirof etildi.

DTM tomonidan hamkorlik debochasi sifatida 14 ta fandan 10 tadan yangicha mezonlar asosida tuzilib, aprobatsiyadan o'tkazilgan namunaviy test savollari va tavsiyasi tahririyatga taqdim etildi. Muzokaraning ikkinchi bosqichida hamkorlik davom etishi, bu gal test topshiriqlari blok tarzida ko'proq berilishi, faqat ayni paytda uch bosqichli aprobatsiyadan o'tkazilayotgani, jarayon may oyi oxirigacha davom etishi mumkinligi ta'kidlandi.

Va'da — qasamdan ulug', deydi xalqimiz. Lafzimizga ishonib ko'plab abituriyentlar, ota-onalar, repetitor o'qituvchilar gazetamizga obuna bo'lganidan ham xabarimiz bor. Shu bois DTM bilan muntazam bog'lanib, test savollari borasidagi hamkorlik haqida eslatib turdik. Biroq may tugab, iyunning yarmi o'tdi hamki, kutilgan natija bo'lmadi. Oxiri, DTMga rasmiy izoh so'rab murojaat qilishga majbur bo'ldik. Gapni cho'zib nima qildik, yaxshisi, o'zingiz o'qib, xulosa qiling.

"Ma'rifat" gazetasi va Davlat test markazining og'zaki kelishuviga ko'ra, 2019/2020-o'quv yilida shakllantirilgan test topshiriqlaridan namunalar berish yo'lga qo'yilgan hamda namunalar ikki marotaba taqdim etilgan edi. Biroq yangi tuzilgan test topshiriqlarini belgilangan tartibda ekspertiza va aprobatsiyadan o'tkazish ishlari davomli vaqt talab etganligi bois, test topshiriqlari bazasi yopiq va maxfiy rejimga o'tganligi hamda ayni kunlarda oliy ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha o'tkaziladigan test sinovlari uchun test topshiriqlari kitoblari variantlari shakllantirilayotganligi munosabati bilan savollarni taqdim etish imkoniyati mavjud emasligini ma'lum qilamiz.

Alohida qayd etamizki, keyingi o'quv yilidan boshlab, mavjud va yangi shakllantirilgan test topshiriqlari "Ma'rifat" gazetasi tahririyatiga o'z vaqtida taqdim etib boriladi".



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ДАВЛАТ ТЕСТ МАРКАЗИ

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN CABINET OF MINISTERS STATE TEST CENTER

100084, Тошкент, Боғишамол кўчаси 12. Тел: (998 71) 235-19-14, Факс: (998 71) 234-71-84 www.dtm.uz, эл. почта: info@dtm.uz

100084, Bog'ishamol street-12, Tashkent. Tel: (998 71) 235-19-14, Fax: (998 71) 234-71-84 www.dtm.uz, e-mail: info@dtm.uz

«17» 06 2019 й.
№ 19-02-1468

"Маърифат" газетаси таҳририятига
100083, Тошкент шаҳри, Мағбуқучилар кўчаси, 32-уй

"Маърифат" газетаси ва Давлат тест марказининг оғзаки келишувига кўра 2019/2020 ўқув йилида шакллантирилган тест топшириқларидан намуналар бериш йўлга қўйилган ҳамда намуналар икки маротаба тақдим этилган эди. Бироқ янги тузилган тест топшириқларини белгиланган тартибда экспертиза ва апробациядан ўтказиш ишлари давомли вақт талаб этганлиги боис, тест топшириқлари базаси ёпиқ ва махфий режимга ўтганлиги ҳамда айни кунларда олий таълим муассасаларига қабул бўйича ўтказиладиган тест синовлари учун тест топшириқлари китоблари вариантлари шакллантирилаётганлиги муносабати билан саволларни тақдим этиш имконияти мавжуд эмаслигини маълум қиламиз.

Алоҳида қайд этамизки, кейинги ўқув йилидан бошлаб, мавжуд ва янги шакллантирилган тест топшириқлари "Маърифат" газетаси таҳририятига ўз вактида тақдим этиб борилади.

Директор ўринбосари К. Хакбердиев

Xalqimiz kechirimli, bag'rikeng, kezi kelsa, uncha-muncha yanglishish-u xatoliklarga ko'z yumib qo'ya qoladi. Biroq kechiradi, unutadi, deb, yurtdoshlarimizning ishonchini suiiste'mol qilish nechog'lik to'g'ri? DTM mutasaddilari jarayon shu taxlit yakun topishini bilarmidi? Bilsa, nega hamkorlikka rozi bo'ldi, oxirigacha ochiqlik prinsiplariga sodiq qolish istagidan voz kechmadi? Nega o'z vaqtida "Kechirasizlar, og'aynilar, biz haliyam avvalgidek ishlayapmiz, test savollari ilgari ham OAVda e'lon qilinmagan, bundan keyin ham maxfiyligicha qoladi", deyilmadi?..

Tahririyat

Daxldorlik

Davlat mafkurasi zarur

Mustaqil O'zbekistonimiz Konstitutsiyasi haqida gap ketganda, uni "Baxtimiz qomusi" deyishadi. Bu haqli fikr. Zero, Asosiy qonunimiz milliy davlatchiligimiz ravnaqi va ijtimoiy hayotimizda alohida o'rin tutadi.

Buyuk faylasuf G.Gegel o'zining "Tarix falsafasi" asarida "Xalqning davlat tuzumi uning dini, san'at va falsafasi bilan birga yagona substansiya, yaxlit ruhni tashkil qiladi" (Gegel G.V.F. Soch., t. VIII. — M.-L., 1935. — S. 44.) deb yozadi. Davlat tuzumi esa o'sha xalq mansub bo'lgan mamlakat konstitutsiyasi, asosiy qonunida aks etadi va aniq qoidalar orqali mustahkamlab qo'yiladi.

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi "o'zining tuzilishi, yo'nalishi, mazmun jihatidan O'zbekiston hududida shu vaqtga qadar amal qilib kelgan konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. U boshdan oxirigacha mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan" (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2006. 12-jild. — 190-bet).

Milliy qomusimizda yozilgan bu fikr g'oyat o'rinli. Zero, Asosiy qonunimiz xalqimizning milliy huquqiy ongi shakllanishida yangi bosqich bo'lgani shubhasiz.

Ma'lumki, hech bir konstitutsiya birdan mukammal holda shakllanmaydi. Buning isboti O'zbekiston Konstitutsiyasiga 2003-yildan boshlab qator o'zgartish, tuzatish va qo'shimchalar kiritilganidir. Ularni yaqqol ko'rish uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2019-yildagi nashrining birinchi va so'nggi sahifasiga boqish kifoya, bu yerda kiritilgan o'zgartishlar aniq qayd etilgan. Lekin Konstitutsiyamizda bir modda borki, u ilk nashrdan beri o'zgarishsiz qolmoqda. Bu Birinchi bo'limdagi "Asosiy prinsiplar" qismiga kirgan 12-moddadir. Uni keltiramiz:

"O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas".

Moddaning birinchi abzasi to'g'ri, unga e'tiroz yo'q. Bu demokratik jamiyat talablaridan biri va muhimidir. Lekin keyingi gapni to'g'ri deb bo'lmaydi. Birinchi abzasda siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi haqida gapirilar ekan, buning to'g'riligini aytdik. Lekin xalqimizda "Har joy, hech joy" degan maqol bor. Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligidan o'zimizga xos va mos bo'lganini tanlashimiz hamda unga amal qilishimiz kerak bo'ladi. Tanlangan hamda davlat va jamiyat hayotida qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan yo'l-yo'riqlar, siyosiy, axloqiy, iqtisodiy, falsafiy va diniy qarashlarimiz yaxlit holda omuxta qilingan qoidalar majmuyi mafkura, uning ortida davlat hokimiyati tursa, davlat mafkurasi bo'lar ekan, qanday qilib uni qat'iy ravishda "o'rnatilishi mumkin emas" deb konstitutsiya kabi jiddiy hujjatda yozish mumkin.

Buning ustiga Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning (u kishi Asosiy qonunimizning yetakchi ijodkorlaridan biri ekanligi ko'p bora qayd etilgan) shunday gapi bor:

"Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin" (Karimov I.A. Jamiyatning mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. Toshkent: O'zbekiston, 1998. 4-bet).

Jiddiy va haqqoniy fikrlar. Ayniqsa, ushbu ko'chirmadagi "mafkuraviy bo'shliq" aynan davlat mafkurasi yo'qligidan hosil bo'lmaydimi? Aynan shunday bo'shliqni o'zimiz hosil qilmayapmizmi? Shunday ekan, Birinchi Prezident yozgan fikrlar 12-moddaning ikkinchi qismiga zid emasmi? Ularda aytib o'tilgan xavflarga "o'rnatilishi mumkin emas" degan taqiq keng yo'l ochib bermaydimi?

Buning ustiga I.Karimovning yuqoridagi gapi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh" (T.: O'zbekiston, 2008. 56-bet) kitobidagi 12-moddaga berilgan sharhda keltiriladi-yu, lekin Birinchi Prezidentimiz gapi bilan 12-modda orasidagi nomuvofiqlik payqalmaydi. Shu sharhda yana shunday deyiladi: "Shuningdek, Konstitutsiyamizning ushbu moddasida ta'kidlanganidek, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Mazkur moddada o'rnatilgan me'yor oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini qo'yadi" (Shu kitob, 56-bet).

Gapdagi mantiqqa e'tibor bering. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin bo'lmasa, unda milliy istiqlol mafkurasining ahamiyati, kuchi, nufuzi qay ahvolda bo'ladi? Bu savolga sharhda javob yo'q.

Nazarimda, 12-modda, aniqrog'i, uning ikkinchi qismi yaqin o'tmishimiz bo'lgan sovet totalitar tuzumidagi qattiq mafkuraviy bosimga javob tarzida vujudga kelgan, xalq maqoli bilan aytganda, "burgaga achchiq qilib, ko'rpa kuydirilgan, shekilli. Mafkuraviy davlat boshqa, davlat mafkurasi boshqa. Sobiq SSSR markscha-lenincha g'oya asosidagi mafkuraviy davlat edi va u yemirildi. Bu narsa davlat mafkurasi zarurligini yo'qqa chiqara olmaydi.

Men huquqshunos emasman, adabiyotshunosman. Shu ma'noda meni o'zbek adabiyoti va tanqidchiligining hozirgi ahvoli qiziqtiradi. Joriy adabiyotimiz, ayniqsa, adabiy tanqidning sustligi sabablaridan biri, ushbu moddada qayd etilganidek, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas degan qoida deb o'ylayman.

Bu mamlakatimizda davlat mafkurasi yo'q, degani emas. Davlat mafkurasi bor. Prezidenimiz Sh.Mirziyoyevning har bir chiqishida milliy istiqlol mafkurasining muayyan qirrasi o'z aksini topadi. Zero, mafkurasiz yashash ham, samarali faoliyat yuritish ham mumkin emas. Faqat, yuqorida aytilganidek, milliy istiqlol mafkurasining asosiy mag'zi qisqa va lo'nda tarzda davlat mafkurasi sifatida Asosiy qonunda mustahkamlab qo'yilishi kerak, xolos.

Davlat mafkurasi sifatida O'zbekiston Konstitutsiyasi moddasiga aylangan milliy istiqlol mafkurasi hayotimizning barcha jabhalari, jumladan, badiiy adabiyot va san'atimizning g'oyaviy aniqligi, mafkuraviy sofligi va badiiy teranligiga barakali ta'sir o'tkazib, mafkuraviy mayoq vazifasini o'tagan bo'lur edi. Aks holda akademik shoirimiz G'afur G'ulomning mashhur "Shum bola" asari oxirida aytilganidek, "To'rt tomonim qibla. Lekin qayoqqa qarab yo'l olsam ekan?.."ga o'xshash holat ro'y berayotganday. Umid qilamizki, bunday bo'lmaydi.

Xullas, Asosiy qonunimizdagi 12-modda tuzatilishi zarur. Uning ikkinchi qismi o'rniga O'zbekiston Respublikasining davlat mafkurasi qisqa va lo'nda tarzda qayd etilishi maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

Suvon MELI,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Mulohaza

Javonda sarg'ayib qolmasmikan?!

Jizzax viloyatida shunday nurli, fayzli koshona bor. Bu maskan viloyat axborot-resurs markazidir. Atoqli o'zbek shoirlari Hamid Olimjon va Zulfiya haykallari o'rnatilgan muhtasham bog' to'rida qad ko'targan bu ko'rkam bino har qanday kishining e'tiborini tortadi. Ziyo maskaniga qadam qo'yamiz.

Foyedagi manzaraning o'ziyoq kishini mutolaaga chorlaydi, kitob o'qishga rag'bat uyg'otadi. Javonlarda o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari did bilan terilgan.

Ro'paramizdan quvnoq kayfiyatli qizaloq chiqadi. Tanishamiz. Baxmal tumanidagi 1-maktab o'quvchisi Dilnavoz Safarboyeva ekan.

— Po'lat Mo'minning "Bolajon, bolajonim" kitobini o'tgan hafta olib ketgandim, mazza qilib o'qib chiqdim, — deydi u. — Hassos shoir Hamid Olimjonning yangi kitobi chop etilgan ekan. Shuni olib o'qimoqchiman.

— Nima uchun Baxmaldan atayin kitob olgani bu yerga keldingiz?

— Bu yerdagi kutubxonachilar juda xushmuomala, mehribon. Istagan kitobingizni topib berishadi. Hatto so'ralgan kitob kutubxonada bo'lmasa, buyurtma asosida keltirib berishadi.

— Kitobsevarlarimiz orasida yoshlar bilan birga mehnat faxriylari ham ko'pchilikni tashkil etadi, — deydi axborot-resurs markazi bo'lim mudiri Gulnora Sharipova. — Ular barcha adabiy-badiiy tadbirlarni tashkil etishda bizga yaqindan ko'maklashadi. Yoshlarga kitobga havas, mutolaaga ishtiyoq uyg'otishda ibrat bo'lishyapti.

— Jamoamizda 48 nafar xodim ishlaydi, — deydi ARM direktori Anvar Yo'ldoshev. — 6 nafari oliy, 23 nafari o'rta maxsus ma'lumotli, 19 nafari nomutaxassis. Ayni paytda markazimizda bir paytning o'zida 100 nafar kitobxonga xizmat ko'rsatish imkoniyati bor. Biroq soha bo'yicha mutaxassis kadrlar juda kam. Shu bois Jizzax davlat pedagogika institutida kutubxonachilik bo'limi ochilsa, ayni muddao bo'lardi.

Darhaqiqat, bugungi kunda viloyatdagi 542 ta maktabda ishlayotgan 711 nafar kutubxonachining atigi 24 nafari oliy ma'lumotli. 38 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega, qolgan 600 nafardan ziyod xodimning esa sohaga mutlaqo aloqasi yo'q.

Mazkur axborot-resurs markazi viloyatdagi maktab kutubxonalariga uslubiy yordam ko'rsatadi. Bir qator mahallalar va bolalar bog'chalarida oyiga bir marta kichik ko'chma kutubxona tashkil etadi. Yil boshidan axborot-resurs markazi Jizzax shahridagi "Shalola", "Aziza", "Bahor", "Go'zal", "Quyoshcha" kabi MTM, ko'zi ojizlar maktab-internati, shuningdek, qator mahallalarga yangi kitoblar yetkazib beryapti. Achinarlisi, ko'pchilik maktab kutubxonalarining kitob fondi o'ta nochor. Yangi badiiy asarlar yo'q hisobi.

Axborot-resurs markazida bugungi kunda 20 ming nusxadan ziyod kitob bor. G'afur G'ulom nomidagi, "O'zbekiston" kabi nashriyotlar bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha markaz joriy yilda 100 million so'mlik kitob xarid qilishi lozim.

* * *

Kitoblar bor, yana keltiriladi. Lekin muammo — bitta. Ularning barchasi o'z o'quvchisini toparmikan? Javonlarda turib, sarg'ayib qolmasmikan? Hamma gap shunda. Har bir o'qituvchi, tarbiyachidan tortib ota-onalargacha — barchaning oldida turgan masala shu. Farzandlarimiz kitobxon bo'lishi, har bir xonadondan kitob o'rin olishi lozim.

Abdulla AHMAD
Jizzax viloyati

Farzandlarim orasida Nizomiddin sharafli kasbni tanlab, harbiy bo'lishga ahd qildi. Mana bugun ofitser bo'ldi.

"Faslning eng yaxshi ijodkori"

Ko'klam fasli g'oliblari bilan tanishing

Aziz mushtariylar! Mana, yana bir go'zal fasl — BAHOR bilan xayrlashib, "qalb"i qaynoq yozni qarshi oldik. Bayramlarga boy bahor ko'pchilik ijodkorlarga ilhom bergani rost.

Bu faslda ijodkor-pedagoglar, olim-u mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlarning faolligi sabab gazetamiz sahifalarida ko'plab dolzarb mavzularda tahliliy-tanqidiy maqolalar, ta'lim-tarbiyaga oid amaliy takliflar, munosabat va sharhlar, badiiy ijod namunalari e'lon qilindi. Shu o'rinda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchi-pedagoglariga bir e'tirozimiz bor. Chunki o'qituvchi-pedagoglar tomonidan dars jarayonida asqotadigan uslubiy tavsiyalar, dars ishlanmalari, tadbir senariylari deyarli yuborilmaganligi sababli tanlovning ***«Original bir soatlik dars yoki tadbir senariysi»*** *nominatsiyasi bo'yicha g'olib aniqlanmadi. Aziz o'qituvchilar, sizlarni o'z tajribalaringizni gazeta sahifalari orqali o'rtoqlashish uchun faollikka chorlab qolamiz.*

"Faslning eng yaxshi ijodkori" tanlovining bahor fasli (2019-yil mart, aprel, may oylari) g'olibligi uchun faol mualliflarimiz asosiy da'vogarlar safida bo'ldi. Albatta, ularning ichidan eng munosiblari saralandi va g'olib deya e'tirof etildi. G'oliblikni qo'lga kiritgan ijodkor mushtariylarimizga, ilg'or pedagog mualliflarimizga samimiy minnatdorlik bildiramiz. Ularni muvaffaqiyat bilan tabriklab, ijodiy barkamollik tilab qolamiz.

Tanlov nominatsiyalari nomi	G'olib material nomi va e'lon qilingan sanasi	G'olib mualliflar
«Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola»	Samarqandda sudyalar kimga xizmat qilyapti? (15-may)	Karimberdi To'ramurod
«Pedagog-muallifning dolzarb materiali»	Talaba mas'uliyatidagi beshta farq — beshta to'siq (29-may)	Komil Jalilov
«Eng yaxshi ocherk yoki esse»	Hayot darsin berib ketdi (13-mart)	Norqobil Jalil, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist
«Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif»	12 yosh psixologiyasi (27-aprel)	Zarifboy Ibodullayev, Tibbiyot fanlari doktori, professor
Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va eng kam ish haqining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.		
«Voqelikka munosib sharh yoki munosabat»	O'zbek tiliga "Ц" tovushi kerakmi? (29-may)	Behzod Mamadiyev, "Buyuk kelajak" ekspertlar kengashi a'zosi, jurnalist
«Mazmunli intervyu, suhbat»	Maqsad, harakat, intizom olim bo'lishning yagona siri (27-aprel)	Baxtiyor Sheraliyev, Xitoydagi Janubi-g'arbiy universitet doktoranti
«Sermazmun sahifa»	"Ma'rifat" mahorat maktabi (25-may)	Sardor Mustafoyev, Suhrob Ziyodov
«Samarali metodik material»	Masala yechishning to'rt usuli (8-mart)	Jo'raqul Davlatov, Olot tumanidagi 16-maktab o'qituvchisi
«O'qishli badiiy asar»	"Do'stijon", "Eng yomon baho", "Ilmning xosiyati" (kichik hikoyalar, 17-aprel)	Dilfuza Qosimova
Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va eng kam ish haqining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.		
«Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material»	Yangiyo'llik maktab direktori vazifasiga tiklandi u ta'lim nashrlariga obuna uyushtirganlikda ayblanib ishdan bo'shatilgan edi (3-aprel)	Xayrullo Abdurahmonov, Dilshod Ro'ziqulov
«O'ziga xos yangilik»	Bolajonlar uchun lug'atlar "guldasta"si (11-may)	B.Bahriddinova, Qarshi davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi mudiri
«Eng yaxshi tarjima materiali»	Ali muallimning siri (29-may)	Turkchadan Umida Adizova tarjimasi.
«Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi»	Hayot tarsakisi (15-may)	Ro'ziqul Ochilov, O'zJOKU talabasi
«Jozibali fotolavha yoki surat»	Bola mehnatga o'rgansa... (6-aprel)	Burhon Rizoqulov
Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va eng kam ish haqining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.		

Bitiruvchilarga leytenant unvoni berildi

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi institutida bitiruvchilarga diplom va leytenant unvonini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Oliy o'quv yurtida o'qish davomida o'z bilimlarini boyitish bilan birga, ustozlardan kasb sirlarini o'rganib, katta hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan kursantlarning quvonchi cheksiz. Tadbirda ishtirok etgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyati, institut mutasaddilari, jamoatchilik vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari va yaqinlari ham ularning xursandchiligiga sherik bo'ldi.

Ochilish marosimida so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, Favqulodda vaziyatlar vaziri, general-leytenant Tursinxon Xudoyberganov bugun mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama chuqur bilim olishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilayotgani haqida gapirar ekan, bitiruvchilarning ta'lim dargohida olgan bilimlarini Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida safarbar etishlariga ishonch bildirib, ularning kelgusi ishlarida omad va zafarlar tiladi. Shundan so'ng marosim bitiruvchilar va ularning ota-onalari bildirgan samimiy minnatdorlik izhorlari bilan davom etdi.

— O'g'limning hayotidagi yana bir quvonchli kunida ishtirok etish uchun Navoiy viloyatidan keldim, — deydi bitiruvchi Nizomiddin Shukurqulovning otasi Farhod Hakimov. — Turmush o'rtog'im Sayyoraxon bilan to'rt farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdik. Farzandlarim orasida Nizomiddin sharafli kasbni tanlab, harbiy bo'lishga ahd qildi. Mana bugun ofitser bo'ldi. Uni ko'rib, men ham, onasi ham juda faxrlandik. Jonajon Vatanimizga mana shunday malakali kadrlarni tayyorlab berayotgan oliy dargoh professor-o'qituvchilariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Tadbirning eng hayajonli nuqtasida bitiruvchilarga diplom topshirilib, tantanali tarzda leytenant unvoni berildi. Talabalar shu tariqa o'zlarining sevimli ilm dargohi bilan xayrlashdi.

Farhodjon XOJAYEV,
Yong'in xavfsizligi instituti o'qituvchisi, kapitan
Feruz BOZOROV,
kursant

Alijonov Utkirjon Maxamadaliyevichning 08.00.10 — Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Mehnat bozorida kasb-hunar ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-13, 232-60-22; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Karimov Dilshod Madjitovichning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Sagittal tish-jag' anomaliyalarini erta aniqlash tamoyillari va profilaktikasi, tashxislash va davolashga yondashuv" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-62, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Xalmuratova Muhabbat Kuralbayevnaning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "O'pka xirurgiyasida gemo- va airostaz uchun biologik mos keluvchi implantant samaradorligini klinik-eksperimental baholash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.49.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Kichik halqa yo'li, 10-uy.
Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi majlislar zali.
Tel/faks: (71) 277-69-10, 277-26-42; e-mail: cs75@mail.ru

Buranov Xayrullo Jumaboyevichning 14.00.34 — Yurak-qon tomir xirurgiyasi ixtisosligi bo'yicha "Yurak exinokokkozi bilan kasallangan bemorlarda tashxislash va xirurgik taktikani tanlash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.49.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Kichik halqa yo'li, 10-uy.
Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi majlislar zali.
Tel/faks: (71) 277-69-10, 277-26-42; e-mail: cs75@mail.ru

Utebayev Dauletbayning 01.01.03 — Hisoblash matematikasi va diskert matematika ixtisosligi bo'yicha "Umumlashtirilgan yechimli nostansionar jarayonlarni sonli modellashtirish uchun ayirmali sxemalar" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. FM.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-iyun kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz

Baqoyev Matyoqub Teshayevichning 05.01.07 — Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmuyi ixtisosligi bo'yicha "Moliya va boshqaruv masalalaridagi diffuzion tenglamalar yechimlarini sonli modellashtirish" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.FM.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: rector@nuu.uz

Mavlyanov Zafar Iskandarovichning 14.00.17 — Farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo'yicha "Dori etiologiyali allergiyaning klinik-farmakologik va immunogenetik jihatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.30.02 raqamli ilmiy kengashining 2019-yil 24-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-78-30; e-mail: tta2005@mail.ru

Azizov Abror Mirxakimovichning 14.00.22 — Travmatologiya va ortopediya ixtisosligi bo'yicha "Revmatoid artrit bemorlarida chanoq-son bo'g'imini endoprotezlash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018.Tib.62.01 raqamli ilmiy kengashining 2019-yil 25-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 78-uy.
Tel/faks: (71) 233-10-30, 230-47-99; e-mail: niio-tashkent2016@vandex.ru

Shaxriddinova Laylo Nurxonovnaning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "O'rta yoshli ayollarning funksional holatini e'tiborga olgan holda o'tkaziladigan sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni optimallashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 1-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Bosh o'quv binosi 2-qavat anjumanlar zali.
Tel/faks: (70) 717-17 79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Nabiyev Abduraxim Abduxamidovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Dolomit qo'shimchali termik barqaror ammiakli selitra olish texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.35.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 25-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil:100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanruz@mail.ru

Raximov Abdulla Rustamovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha «Sug'oriladigan yerlarda qattiq bug'doy intensiv navlarining hosildorligi va don sifatiga ekish muddatlari hamda o'g'itlash me'yorlarining ta'siri» mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashining 2019-yil 27-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y. O'zPITI ko'chasi. PSUYAITI. Tel/faks: (95) 142-22-35, (71) 150-62-37;
e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Atajanov Murodjon Maxamadjonovichning 06.01.01 — Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Tuproqqa ishlov berish usullari va takroriy ekinlarning g'o'za hosildorligiga ta'siri" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashining 2019-yil 27-iyun kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel/faks: (95) 142-22-35; (71) 150-62-37;
e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Xudoyqulov A'zamjon Mirzaqulovichning 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Kartoshkaning tuproq osti zararkunandalari va ularning miqdorini boshqarish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Q/x.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 1-iyul kuni soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU.
Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

Egamberdiyev Hamrokul Tursunkulovichning 11.00.04 — Meteorologiya. Iqlimshunoslik. Agrometeorologiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda antropogen omillarni hisobga olgan holda atmosfera tiniqligining quyosh energiyasi resurslariga ta'siri" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy tekshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.G.47.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Bodomzor yo'li, 1-tor ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-13; e-mail: nigmi@albatros.uz

Tabiatni asrang!

Yoz mavsumini maroqli o'tkazish istagidagi aksariyat yurtdoshlarimiz dam olish kunlari tabiat qo'yniga, tog' yonbag'irlariga chiqishni xush ko'radi. Ayniqsa, bunday joylarda oilaviy hordiq chiqarishning o'zgacha gashti bor.

Ammo oramizda dam olishga chiqqach, tabiatni, yon atrofni chiqindilar, turli idishlar, yeguliklarning qog'ozlari bilan ifloslantiradigan kishilar ham topiladi. Ayniqsa, ovqat tayyorlash maqsadida qurigan maysalar ustida o'choq yoqilishi ko'p hollarda baxtsiz hodisalarga sabab bo'ladi. Maysa ustiga tushgan olov uchquni bir zumda yong'in chiqarishi hech gap emas. Yoki ayrim kishilarning e'tiborsizlik bilan tamaki qoldig'ini o't-o'lanlar ustiga tashlashi ham yong'inga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa nafaqat bolalar, balki kattalarning ham hayoti va mol-mulki uchun xavfli.

Tabiat butun insoniyatning boyligi ekan, unga bir yoki bir necha kishining daxl qilishga haqqi yo'q. Zero, tabiatni o'z holicha, bor go'zalligicha asrash — bizning kelajak avlod oldidagi burchimizdir.

U.TURSUNOV,
S.ERGASHEV,
Sergeli tumani YXB inspektorlari
M.NABIYEV,
YXB inspektori, katta leytenant

Asliyatdan tarjima

Sovg'a

O'shanda men o'n, akam Nik esa o'n to'rt yoshda edi. Onalar bayramida oyimiz uchun sovg'a olish — ikkimiz uchun ham ajib bir hayajonli va muhim ahamiyatga ega voqea edi. Oyimiz erta tongdan to yarim tungacha tinim bilmasdi. Goh do'konga yugurar, goh kirlarimizni yuvib, oshxonada biz uchun shirin taomlar tayyorlardi. Kasal bo'lib qolsak, tun-u kun boshimizda parvona, to tuzalib ketgunimizcha atrofimizda girdikapalak bo'lardi.

— Oyingizga nima sovg'a olmoqchisizlar? — deb so'radi dadam bizdan.

— Har birimiz alohida-alohida sovg'a olmoqchimiz, — dedim viqor bilan.

Nik ikkimiz qanday sovg'a olishni maslahatlashdik va did borasida bellashishga kelishib oldik.

— Kel, qanday sovg'a olishimizni bir-birimizdan sir tutaylik, — dedi Nik.

Ancha o'ylab, nihoyat oyim uchun qimmatbaho, ya'ni brilliantga o'xshash yaltiroq toshlar bilan bezatilgan taroq sotib oldim. Do'kondan qaytib kelganida, Nikning ham yuzida mamnuniyat hissi balqib turardi. Mening sovg'am unga juda yoqdi, ammo o'zi nima olganini aytmadi. U faqatgina "Men qulay fursat kelganida sovg'amni beraman", dedi.

Ertasi kuni ertalab oyim pol yuvishga hozirlik ko'rayotganida, Nik menga yaqinlashib, bosh silkib ishora qildi va biz sovg'alarimizni olib kelish uchun yugurib ketdik.

Men qaytib kelganimda oyim odatdagidek tizzalab o'tirgan holda horg'inlik bilan pol artayotgandi. Pol yuvish oyimning eng yomon ko'rgan ishi edi. Nik sovg'asini olib kelganida, o'rnidan turayotgan oyim bexosdan o'tirib qoldi. Nikning sovg'asiga qarab, ko'zlariga ishonmagandek tikilib turdi. Yangi chelak ichiga solingan, pol yuvadigan matolari bo'lgan moslama, ya'ni poltayoqni ko'rib, umidi puchga chiqqan oyimning alamdan yuzi oqarib ketdi.

— Onalar kuniga chelak bilan poltayoq... — dedi oyim titragan tovushda.

Nikning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. Bir og'iz so'z demay, chelak bilan poltayoqni yig'ishtirdi va tashqariga yo'l oldi. Men taroqni cho'ntagimga soldim-u, uning ortidan yugurdim. Nikning yig'layotganini ko'rib, o'zimni tutolmay, men ham yig'lab yubordim. Pastga tushayotganimizda zinadan ko'tarilayotgan dadamga duch keldik. Nikning gapirishga holi bo'lmagani uchun bo'lgan voqeani men aytib berdim.

— Bu yaxshi sovg'a-ku! — dedi dadam.

Biz birga yuqoriga chiqqanimizda, oyim haliyam pol artayotgan edi. Dadam indamay pol yuvadigan tayoqning shokilasini chelakka botirdi-da, qanday qilib pol yuvishni bizga ko'rsatdi.

— Nikni oxirigacha eshitmabsan, — dedi dadam oyimga qarab, — sovg'asining bir qismi shundan iboratki, u hozirdan boshlab polni o'zi yuvadi. So'ng esa Nikka qarab "Shundaymi?", dedi.

Alamdan qizarib ketgan Nik allaqachon xatosini anglab yetgan edi. "Ha, ha, shunday!", dedi u.

— Ayol kishi baribir kalta o'ylaydi-da, — dedi oyim akamning peshonasidan o'pib.

Nik esa bundan ancha dadillashdi. So'ng oyim men tomon o'girildi.

— Sening sovg'ang qani, o'g'lim? — deb so'radi dadam.

Nik menga qaradi-yu, rangi o'chib ketdi. Cho'ntagimda turgan taroqqa qo'l tekkizdim, ammo olmadim. Chunki yaltiroq toshchali bejirim taroq poltayoqni yana o'sha oddiy poltayoqqa aylantirib qo'yardi...

— Nik ikkimiz bitta sovg'a olgandik, sovg'aning yarmi meniki, — dedim men. Akam esa menga mehr bilan qarab turardi.

Tasavvur kuchi

Janob Braun uzoq davom etgan sayohatdan so'ng mehmonxonaga yetib kelganida, kech tushib qolgandi. U porte, ya'ni mehmonxona xizmatchisidan bo'sh xona bor-yo'qligini so'radi. Xuddi o'sha payt yana bir kishi kelib, unga ham xona kerakligini aytdi. Ammo mehmonxonada atigi ikki kishilik bir xona bo'sh edi.

— Agar qarshi bo'lmasangiz, xonani ikkingizga rasmiylashtiraman, — dedi porte. — Bu sizga ancha arzonga tushadi. Chunki har biringiz xona haqining yarmini to'laysiz.

Bu taklif yo'lovchilarga ma'qul kelmagan bo'lsa-da, haddan ziyod charchaganlari va tashqarida shiddat bilan yog'ayotgan yomg'irni ko'rib, rozi bo'lishdi. Yo'lovchilar xonaga joylashganlaridan so'ng kun bo'yi toliqqani uchunmi, birpasda uxlab qolishdi. Yarim kechasi shovqindan uyg'onib ketgan Braun sherigining xirillashini eshitib, qo'rqib ketdi. Chiroq o'chib qolgan, atrof zimziyo edi.

— Nima bo'lyapti? — dedi Braun. — Biror gap bo'ldimi sizga?

Ikkinchi yo'lovchi ingroq ovozda javob berdi:

— Uzr, sizni uyg'otib yubordim. Astmam bor-da. Nafasim qisyapti. Derazani ochmasangiz, o'lib qolaman.

Janob Braun o'rnidan tura solib, qorong'ida sumkasini paypaslagancha gugurt izlay boshladi, ammo gugurt ham hadeganda topila qolmadi. Shu payt aksiga olib bemor sherigi xirillagan tovushda "Havo, havo... Menga toza havo kerak... O'lyapman...", deya ingradi. Haligacha gugurt topolmagan Braun derazani izlashga tushdi. Qorong'ida nimalargadir qoqilib-surinib oxiri derazani topdi. Topishga topib, ocholmasdan xunob bo'ldi. Chunki derazada hech qanday tutqich yo'q edi. Bemor sherigining xirillashi tobora zaiflashayotganini eshitgan Braun jon holatda yonidagi stulni olib, zarb bilan deraza oynasiga urdi. Oyna chil-chil sindi. Birozdan so'ng bemor xirillashdan to'xtab, nafas olishi yaxshilandi. U Braunga undan behad minnatdor ekanini, bu yaxshiligini hech qachon unutmasligini aytdi va ikkalasi ham tinchlanib uyquga ketdi. Ertalab uyg'onganlarida esa xonada bor-yo'g'i bittagina deraza borligi va uning yopiqligini, ammo yonboshdagi devorda osig'liq turgan katta toshoyna sinib yotganini ko'rib, hayratdan lol qolishdi.

Ingliz tilidan
Nurobod tumanidagi 2-maktabning ingliz tili o'qituvchisi
Mahbuba JABBOROVA tarjimasi.

Hayotiy hikoyalar

Qurtning uyini yeb qo'ydi

To'rt yoshli Ali shirin olmani yeb tugatay deb turganida, birdan qichqirib yubordi. Oshxonada kuymalanib yurgan Fotima xola nima bo'ldi ekan, deya yurak hovuchlab, yugurib keldi.

— Voy oyijon, qarang, — dedi Ali olma ichidan boshini chiqarib turgan qurtni ko'rsatib. — Bechoraning uyini yeb qo'yibman. Endi u qayerda yashaydi?..

Aslida hamma "Bilmasvoy"

Bolaligimda onam biror ish buyursa, nuqul "bilmayman", deb xarxasha qilardim. Shunda onam "Voy o'zimning, Bilmasvoyim", derdi. Lekin maktabga borganimda onamning bu erkalashi erish tuyuladigan bo'ldi. Bir kuni "Oyi, meni bunday chaqirmang", deya e'tiroz bildirdim.

— Agar o'zing ham "Bilmayman" degan so'zni ishlatmasang, roziman, — dedi onam.

— Axir bilmagan narsamni bilmayman deyman-da, — dedim biroz achchiqlanib.

— Dunyoda hamma ham "Bilmasvoy", qizim, — dedi onam boshimni silab. — Odam hech narsani bilmay dunyoga keladi. Dastlab onasi, keyin kattalar va ustozlaridan asta-sekin o'rgana boshlaydi. Agar bilmayman, deb hech nima qilmay o'tiraversang, o'z imkoniyating va qobiliyatingni yo'qqa chiqarasan. Odamning qo'lidan kelmaydigan ishning o'zi yo'q. Hamma gap harakatda, "bilmayman" degan so'zni unutishda...

Shundan boshlab, onam aytgan ishlarni asta-sekin bajarish orqali uyni tozalash, choy damlash, ovqat pishirish, tikish-bichish va ko'plab yumushlarni o'rganib oldim. Mana, oradan qancha yillar o'tdi. Hanuz onamning shu nasihatiga amal qilaman. Mehribonim aytgan shu hikmat butun hayotimni charog'on etishini bilaman.

Tanbeh

… Ota o'g'lini ostonada xushlamaygina qarshi oldi.

— Nima, yana o'rin ololmadingmi? Uch yildan buyon ahvol shu. O'zi kallang ishlamaydi sening. Yig'ishtir endi bo'lmag'ur olimpiadangni. Undan ko'ra universitetga tayyorlan! Bor-yo'g'i bir yil vaqting qoldi...

…O'g'il otasini ostonada kulib qarshi oldi:

— Dadajon, attestatsiya qiyin bo'ldimi, deyman? Axir, yigirma yildan buyon o'qituvchilik qilasiz. Nimaga savollarga to'liq va to'g'ri javob berolmadingiz?

O'g'lining gapi otani o'ylantirib qo'ydi va dedi:

— Mag'lubiyat — eng yaxshi saboq. Hammasini boshidan boshlash imkoni. Dono xalqimiz aytgan-ku "Yiqilgan kurashga to'ymas", deb. Bor, olimpiadangga tayyorlan, o'g'lim.

San'atkorning o'g'li

U yurt tanigan katta san'atkor, o'z maktabini yaratgan ustoz. Doim yoshlar tarbiyasi, odob-axloqi va saviyasi haqida yonib-kuyib gapiradi. Ayniqsa, yosh xonandalarning bo'lar-bo'lmas qo'shiqlarini kuchli tanqid ostiga oladi...

Bir kuni jurnalistlar uning uyida mehmon bo'ldi. San'at sehri, muvaffaqiyatlar siri, oilaviy hayot va farzandlar tarbiyasi haqida uzoq suhbatlashishdi. Shu asnoda farzandlarning ham otasi va san'at haqidagi fikri so'raldi.

— San'atga juda qiziqaman, — dedi ustoz hofizning o'g'li. — Ayniqsa, menga estrada yulduzi falonchining qo'shiqlari juda yoqadi.

U shunday deya o'z mahoratini namoyon etdi. Jurnalistlarning savolli nigohidan xijolat tortgan ota xalqni tarbiyalagandan ko'ra, bir bolani tarbiyalash mushkulligini tan oldi.

Savol javobsiz qolganida

Nabira har doimgidek buvisiga savol berdi:

— Buvi, bahor kelganda nega hamma yoq yashil bo'lib ketadi?

— Chunki quyosh o'z nurlari bilan yerni isitadi va tuproqdagi urug'lar unib chiqadi. Daraxtlar yana yashillikka burkanadi.

— Nega hamma o'simliklar bir xil o'smaydi? Daraxtlar katta, gullar esa kichkina.

— Daraxtlar ham bir paytlar kichik urug' va ko'chatdan unib chiqqan. Ular yillar davomida o'sib, katta daraxtga aylangan. Xuddi sening yildan yilga bo'ying o'sgani kabi.

— Nega unda boshqa o'tlar ham katta bo'lmaydi?

Buvisi o'ylanib qoldi va nabirasiga buni tushunishi uchun hali vaqt borligini aytdi.

— Qachon bilaman?

— Katta bo'lganingda bilib olasan.

— Qachon katta bo'laman?

— Qachonki otang kabi bo'lganingda.

— Unda hech nimani bilmas ekanman-da.

— Nega unday deysan, bolam?

— Chunki otamdan nima so'rasam, doim "bilmayman", bor, buvingdan so'ra, deydi-ku.

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA

Sarvinoz Qurbonboyeva:

Shaxmat olamiga yo'l oiladan boshlangan

— Sarvinoz, Boyovutda xalq tili bilan aytganda, "Shaxmatchilar mahallasi"da ulg'aygansiz. Ammo oiladagi farzandlar orasidan faqat siz professional shaxmatchi bo'lib yetishdingiz. Bu sport turiga kirib kelishingizga nima turtki bergan?

— Shaxmatga kirib kelishim, asosan, oilaviy muhit bilan bog'liq. Kichkinaligimda boshqa o'yinchoqlar o'rnida shaxmat sipohlari bilan o'ynashni yaxshi ko'rardim. Shundan balki bu sport turiga nisbatan mehrim o'zgacha bo'lgandir. Elas-elas eslayman, dadam bo'sh vaqtlari bo'ldi deguncha, amakim bilan shaxmat o'ynab o'tirishardi. Dadamning aytishlaricha, o'sha paytlardayoq, bu o'yinni o'rganib olgan ekanman. Shunday qilib, 5 yoshimda ushbu sport turi bilan tanisha boshlaganman. Oilada kenja farzandman, akam, opalarim ham shaxmat o'ynashni bilgan ammo mendagi qiziqish balki yuqoriroq bo'lganidanmi, dadam men bilan jiddiyroq shug'ullana boshlagan. Uyimizda shaxmatga oid adabiyotlar ko'p bo'lgan. Umuman, xonadonimizda shaxmat muhiti hukmron edi. To'g'ri, otamning o'zi professional shaxmatchi bo'lmasada, uyimizda har xil shaxmat doskalari, adabiyotlar bo'lardi. O'sha adabiyotlardan haligacha foydalanaman. O'sha kitoblardan birinchi Yuriy Averbaxning "Путешествие в шахматное королевство" ("Shaxmat qirolligiga sayohat") kitobini o'qib tugatganman va shundan keyin hammasi sekin-sekin boshlanib ketdi.

— Birinchi murabbiyingiz otangiz — Karimberdi Jumuqov, keyinchalik, Mamatqul Xaylayev, hozir murabbiyingiz Vladimir Nikolayevich Yegin shundaymi?

— Yo'q, ayni paytda O'zbekiston ayollar terma jamoasi murabbiyi xalqaro grossmeyster Marat Jumayev qo'l ostida shug'ullanyapmiz.

— ... O'zingiz ham murabbiysiz. Shundaymi?

— Yo'q. Ayni paytda murabbiylik faoliyatimda kichik tanaffus yuzaga kelgan. Chunki oldinda ketma-ket musobaqalar bo'lgani uchun hozir bor e'tiborimni mashg'ulotlarga qaratganman.

— So'ramoqchi bo'lganim, murabbiylik qanday ekan?

— Qiyin... (kuladi). Chunki o'zingiz o'ynaganingizda vaziyat qo'lingizda bo'ladi. Hammasini o'zingiz hal qilasiz. Qaysidir ma'noda o'zingiz uchun o'zingiz javob berasiz. O'quvchingiz o'ynagan paytda esa siz aytgan narsalarni bajarmasligi yoki esidan chiqib qolishi mumkin. (O'zingizda ham shunday bo'lgan, lekin esingizdan chiqib ketgan). Shogirdingizning esa har bir yurishi uchun qayg'urasiz, siqilasiz. Yaxshi tarafi esa uning kichkinagina yutug'i ham sizning katta yutug'ingiz bilan teng bo'larkan. Chunki bergan bilimingiz, sarflagan kuchingiz, mehnatingiz, vaqtingizni oqlab, kichkina natijaga erishsa ham sizga katta kuch bag'ishlarkan. Hali u qadar ko'p vaqt murabbiylik qilmagan bo'lsam-da, qisqa muddat ichida shularni his qildim. Angladimki, dadamning shuncha oqargan sochlari bekorga emas ekan. Chunki ham ota bo'lib, ham murabbiylik qilish katta sabr talab qiladi.

— "Путешествие в шахматное королевство" asari haqida gapirdingiz, hayotingizda kitoblarning o'rni qanday? Umuman, Sarvinoz Qurbonboyevaning hobbilari nima?

— Avvalo kitob o'qish, keyin musiqa tinglash, sport bilan shug'ullanish, yana hamma kabi sayr qilishni yaxshi ko'raman, stol tennisiga qiziqaman. Endi bevosita kitoblarga to'xtaladigan bo'lsak, o'zimning shaxsiy kutubxonam bor. Hali u qadar katta emas. Shaxmat adabiyotlarini hisoblamaganda, 100 ga yaqin kitobim bor. Bo'sh vaqtimda ko'proq kitob o'qishga harakat qilaman.

Sportchining hayotida shunday vaziyatlar bo'ladiki, hamma narsa ham siz o'ylagan darajada bo'lavermaydi. Hayotda ham shaxmatdagi kabi oq va qora kunlar bo'ladi. Ba'zan yaxshi natijalarga erishasiz, ba'zida ruhan kuchli bo'lsangizda, o'sha narsani yengib o'tib ketishingiz qiyin bo'ladi. Shunaqa paytlarda faqat kitob o'qiyman. Uyda ham hech kim xalaqit bermaydi, o'z holimga qo'yishadi. Shaxmatga ham qaramayman (kuladi). Shunday payt kitob dunyoqarashingizning o'sishiga, hayotda ham, shaxmatda ham juda yordam beradi, deb o'ylayman. Kitob xuddi do'stimdek bo'lib qolgan. Chunki bilasiz, sportchilar... Hamma har xil-ku, hayotimda rejimni ushlashga harakat qilaman. Balki shu sabablimi, do'stlarim ham sanoqli. Shuning uchunmi, hamma bilan ham tez muloqotga kirishib ketolmayman.

— Hayotni shaxmatning oq va qora donalariga o'xshatdingiz. O'ynagan partiyalaringiz statistikasiga qaraydigan bo'lsak, g'alabalaringizning ko'pchiligi oq donalarga to'g'ri kelarkan. Bu sizning o'yinlarda asosan qo'llaydigan hujumkor taktikangiz bilan bog'liqmi?

— O'zi aslida oq donalarda biroz ustunlik bo'ladi. Chunki ular o'yinni birinchi bo'lib boshlaydi. Shunday bo'lgach, qaysidir ma'noda o'yin yo'nalishini tanlash imkoni ham mavjud. To'g'ri, qora donalarda ham imkoniyat bo'ladi. Lekin baribir oqlarda biroz ustunlik bor. Shaxmat tilida aytsam, debyutda menda oqlarga nisbatan qoralarda muammo ko'proq. Oqlarda ham bor-ku, ammo qoralarga nisbatan ancha yengil. Shuning uchun mag'lubiyatlarim ko'proq qora donalarda o'ynaganimda bo'lgan.

— Partiyalaringizning ko'pchiligini kuzatib, tushundimki, o'yin tizginini qo'lingizga oldingizmi, bo'shatmas ekansiz. Lekin Gulruxbegim Tohirjonova bilan o'yinda 34-yurishgacha ustunlik siz tomonda edi. Keyin-chi, qanday qilib ustunlik raqibangizga o'tib ketdi?

— Partiyani hali batafsil analiz qilib ko'rganim yo'q. Lekin partiya vaqtida o'ylaganim bo'yicha, debyutda yaxshi pozitsiya oldim. Bu men uchun qulay joylashuv edi. Shundan keyin musobaqada duch kelgan muammolarimdan biri (bu har bir turda bo'ldi) — vaqtni noto'g'ri sarflash. Ya'ni juda ko'p partiyalarda raqibimga vaqt bo'yicha ustunlikni berib qo'ydim. Juda ko'p o'ylandim va deyarli barcha partiyalarda seytnotda o'ynadim. Yutqazgan va durang o'ynagan partiyalarimda seytnot payti xato qilish imkoniyatim oshib ketaverdi. O'sha payti raqibingizda o'ylash imkoniyati ko'proq bo'ladi. Aynan Gulruxbegim bilan o'ynalgan partiyamda ham bilmadim nima

bo'ldi, vaqtni juda ko'p sarfladim, mana shu muammoni sezdim. Keyin o'yin tengroq bo'ldi. Qoralarda biroz vaqt ustunligi bor edi. Tezroq o'ynashga majbur bo'ldim. Keyinchalik o'yin o'rtasida pozitsiyamni biroz yaxshiladim-u, vaziyat tenglik atrofida edi. O'yin oxiridagi qaysidir vaziyatda uning imkoniyatini yetarli baholamadim-da, figuralarimni yaxshi rivojlantira olmadim. Ular siqilib qoldi va o'sha vaziyatdan chiqib ketolmadim. Shu yerda yo'l qo'ygan noaniqligim oqibatida shunday vaziyat yuzaga keldi.

— Faoliyatingizni 2012-yildan beri kuzatib boraman. 2008-, 2009- va 2011-yillarda Nafisa Mo'minova O'zbekiston chempionligini qo'lga kiritgan bo'lsa, undan keyin xuddi shuncha marotaba chempion bo'lgan sportchi sizsiz. Lekin 2016-yildan keyin sizda pasayish kuzatildi. Buning sababi nima?

— Bilmadim, o'sha payti nima bo'ldi. O'zi 2015-yilda eng yuqori reytingimni qayd etganman — 2306. Abu Dabida ham u qadar zo'r o'ynadim, deya olmayman. Shundan keyin reyting bali yo'qotishni boshladim. Aslida reytingga ahamiyat bermaslikka harakat qilaman. Deyarli ahamiyat bermayman ham. Chunki birdaniga 100 punkt tushiraman-da yana ozgina muddat o'tib, yuqoriga ko'tarilaman. Eng muhimi, o'yiningizning o'sha darajada bo'lishi. Lekin hozir o'sha reytingga yaqin bordim. Bundan oldin ham 2299 bo'ldi, umuman, mana shu atrofda bir pastga, bir tepaga ko'tarilib 2400 ga bormayapti. Hozir niyatim reytingimni ana shu 2400 gacha ko'tarish.

— Nafisa Mo'minova intervyularidan birida: "Hayot ham shaxmat taxtasiga o'xshaydi. Shaxmat taxtasida ham hayotda bo'lgani kabi markazni egallashga intilaman. Markaz egallanganda, qanotlarni egallash u qadar qiyin emas", — degandi. Sizning shaxmatdagi falsafangiz qanday?

— Shaxmatdagi falsafam haqida o'ylab ko'rmagan ekanman. Shaxmatni ham hayotga o'xshataman. Chunki shaxmat taxtasida ham hayotdagi kabi hech qachon bir tekis partiyalar bo'lmaydi. Yaxshi vaziyatlar bo'ladi, yomon vaziyatlar, hech kim shaxmatda hayotdagi kabi bir tekis partiyalarni o'tkazmaydi. Shaxmatda ham hayotning tezlashtirilgan shaklini ko'rishimiz mumkin. Chunki, shunday vaziyatlar bo'ladiki, bo'ldi yutqazdim, deb tushkunlikka tushib qolganingizda xuddi hayotdagidek, o'zingizni qo'lga olib, kuch topib, intilsangiz, doim biror chora topasiz. Hayotda ham xuddi shunday. Bo'ldi, hammasi tamom, deb qo'lingizni siltamay, yashashda davom etasiz. Harakat qilasiz, o'qiysiz, o'rganasiz, o'sha xatoyingizni takrorlamaslikka intilasiz. Qaysidir payti o'ylamay qilingan xato uchun javob berasiz. Shaxmatda ham qaysidir vaziyatda "E-e" deb, bitta yurishni amalga oshirasiz-u, partiyada qilingan shuncha harakatlaringiz hech narsa bo'lmay qoladi, mag'lubiyatga uchraysiz. Xuddi shunday, hayotda ham o'ylanmay qabul qilingan bitta qaror juda ko'p narsani o'zgartirib yuboradi.

Shunday ekan, men ham shaxmatda yo'l qo'ygan xatolarimni takrorlamaslikka harakat qilaman. To'g'ri, hayotda har bir ishni chuqur o'ylab qilish qiyin-u, baribir qaysidir ma'noda qilayotgan ishingizning keyingi natijasini o'ylashga harakat qilasiz. Shu tarafdan olib qaralganda, shaxmat ham hayotning kichkina ko'rinishi, deb o'ylayman.

— Bu savolga to'xtalganim, 2017-yilda *chess.pw* saytida "Miss Euroasia" tanlovida sizning ham nomzodingiz qo'yilgandi. Bu voqea qanday yuz bergan? O'zi bu tanlov siz uchun qanchalik ahamiyatli edi?

— Umuman olganda, bu tanlovning men uchun u qadar ahamiyati bo'lmagan. Shunchaki, ushbu sayt egasi Marat Mulku bilan "Facebook" tarmog'i orqali tanish edik. U o'z sahifasida shaxmat yangiliklarini yoritib borardi. Bir kuni shunaqa tanlov o'tkazilyapti. Avval ham bittasini o'tkazgandik, qatnashishga rozimisiz, deb so'radi, rozi bo'ldim. Keyin rasmingizni jo'nating deyishgandi, jo'natdim. Bo'ldi, shu bilan voqealar rivoji avj olib ketdi. O'sha payti Hindistondagi musobaqada edim, shuning uchun bunga ortiqcha e'tibor bermadim. Bu inson bilan ham yuzma-yuz tanish emasdim. So'rashgani uchun "yo'q" deyolmadim, xolos.

— Bu tanlov orqali ko'tarilgan shov-shuv faoliyatingizga ta'sir qilmadimi?

— Yo'q, o'zim hech qanday o'zgarishni sezganim yo'q. Jansaya bilan ham munosabatlarimiz haligacha yaxshi. Musobaqalarda ko'rishib turamiz. Nimagadir, u bilan ham ko'pincha durang bo'ladi. Hech u bilan bu mavzuda gaplashib ham ko'rmaganmiz. Kim qanday tushunadi, bilmadim. Menga bu tanlovning hech qanday ta'siri bo'lmagan.

— Juda ko'pchilik Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindorlarini bilaman. Aksariyatida qandaydir baland-parvozlik bordek. Siz ham ushbu mukofot sohibasisiz. Ammo ularga umuman o'xshamaysiz. Ya'ni, omma nazarida bo'lishga u qadar xushingiz yo'q. Buning sababi nimada?

— Xarakterim bilan bog'liq. Boya ta'kidlaganimdek, diqqat markazida bo'lishni u qadar yoqtirmayman Balki tanishlaringiz orasida siz aytgan xarakterdagi qizlar ko'pdir. Ammo men bilgan "zulfiyachi" dugonalarim ichida ham xuddi o'zimga o'xshaganlari bor.

— Sarvinoz, mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur. Kelgusi faoliyatingizda muvaffaqiyat tilayman!

Bahodir HASANOV
suhbatlashdi.

Hayotda ham shaxmatdagi kabi oq va qora kunlar bo'ladi. Ba'zan yaxshi natijalarga erishasiz, ba'zida ruhan kuchli bo'lsangiz-da, o'sha narsani yengib o'tib ketishingiz qiyin bo'ladi. Shunaqa paytlarda faqat kitob o'qiyman. Uyda ham hech kim xalaqit bermaydi, o'z holimga qo'yishadi.

"Eng yaxshi psixolog" kim bo'ldi?

Bola qalbi — sirli olam. U ulg'ayar ekan, ichki o'y-qarashlarini tashqi olam, atrofidagilar xatti-harakati bilan qiyoslaydi. Yaxshi va yomonni ajratishga qiynaladi, ich-ichidan o'ylantirayotgan savollariga javob izlaydi, mehrtalab bo'lib qoladi.

Bunday paytda ota-onasi, oilasi, yaqinlari tomonidan e'tibor, g'amxo'rlik berilsa u o'z yo'lini topib ketadi, aksi bo'lsa-chi?.. Ko'chadan mehr, e'tibor istaydi. Ana shunday vaziyatda ta'lim muassasasidagi amaliyotchi-psixologning ziyrakligi, tajriba va bilimi muhim ahamiyatga ega.

Xalq ta'limi tizimidagi amaliyotchi-psixologlar orasidan ilg'or, tashabbuskor, ijodkor, salohiyatli va fidoyilarini aniqlash, ularning ijodiy faolligini oshirish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanib, ijobiy natijalarga erishayotganlarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or ish tajribasini ommalashtirish maqsadida har ikki yilda bir marotaba "Eng yaxshi psixolog" respublika ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinmoqda.

Tanlovning bu yilgi respublika bosqichi Farg'ona shahrida o'tkazildi. Unda tanlovning viloyat bosqichlarida o'z bilimi, ijodkorligi, tashabbuskorligi va ijodiy faolligi bilan yuqori o'rinlarni egallagan eng kuchli 14 nafar amaliyotchi-psixolog ishtirok etdi.

Ko'rik-tanlov 4 turda o'tkazildi. Ishtirokchilar 1-bosqichda test sinovlari, 2-bosqichda "Muammoli vaziyat"dan chiqish, 3-bosqichda "Belgilangan mavzu yuzasidan trening-mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish", 4-bosqichda namunaviy trening-mashg'ulotni notanish sinfda o'tish shartini bajarishdi.

Tanlov yakuniga ko'ra, Farg'ona shahridagi 40-IDUM psixologi **Yuliya Em** g'olib deb topildi. Namangan tumanidagi 16-maktab psixologi **Qunduz Irisboyeva** 2-o'rinni, Karmana tumanidagi 10-maktab psixologi **Lola Sayidahmedova** 3-o'rinni egalladi. Bu yilgi tanlovda ishtirokchilar tomonidan "O'smirlarda depressiya va stress holatlarini bartaraf etish" mavzusida mualliflik video-treningi tayyorlandi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali ovozga qo'yildi.

Ko'rik-tanlovning respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimida Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari D.Kenjayev, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori L.Gaynutdinova va Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i M.Turdimatov qatnashdi.

G'oliblar vazirlikning diplom, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

N.XOLMETOVA

"Binafsha"da o'tayotgan shodon kunlar

Yozning qaynoq kunlarida o'quvchilar o'z qadrdon ilm maskaniga qatnashni davom ettirmoqda. Yozgi sog'lomlashtirish maydonchalari ularni quchoq ochib kutib olmoqda. Shayxontohur tumanidagi 320-umumta'lim maktabida "Yoz — o'tmoqda soz" shiori ostida "Binafsha" sog'lomlashtirish maydonchasi tashkil qilingan.

Bu yerda 130 nafar bola "Kamalak", "Barkamol avlod", "Qaldirg'och", "G'uncha" guruhlarida vaqtlarini maroqli o'tkazmoqda.

5 muhim tashabbus asosida maydonchada raqs, kitobxonlik, shaxmat, shashka, "Yosh informatiklar", "Mohir qo'llar", "Yosh rassomlar", "Qiziqarli matematika", "We learn English" to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda.

— Bolalarning qiziqishiga qarab, to'garak mashg'ulotlaridan so'ng "Quvnoq startlar" musobaqasi, "Men O'zbekiston farzandiman", "Raqslar jilosi" ko'rik-tanlovlari o'tkazilmoqda, shahrimizning diqqatga sazovor go'shalari hamda istirohat bog'lariga sayohatlar uyushtirilmoqda, — deydi oromgoh rahbari Yashnar Hamroyev. — "Binafsha" yozgi maydonchamizda ta'til kunlarini mazmunli o'tkazayotgan o'quvchilarimizning yangi o'quv yilini ham ana shunday yuqori kayfiyatda kutib olishiga ishonamiz.

MUXBIRIMIZ

Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:
O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-3516. Tiraji 15468.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-6416

"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Niginabonu Shukurova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zA yakuni — 21.45 Topshirildi — 00.00 1 2 3 4 5 6